



SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

OILADA BOLA TARBIYASINING TARKIBIY QISMLARI



SAMARQAND

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Sh.Usanov Sh.Axmedova

**OILADA BOLA TARBIYASINING
TARKIBIY QISMLARI
Uslubiy qo‘llanma**

*SamDU o‘quv-uslubiy
kengashi majlisida muhokama
qilinib, nashrga tavsiya etilgan
(2014- yil 29-aprel. 8-bayonnomasi).*

Samarqand – 2017

UDK 377.4
BBK 74.5
O 66

Sh.Usanov, Sh.Axmedova, Oilada bola tarbiyasining tarkibiy qismlari. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2017. – 78 bet.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma pedagogika va psixologiya, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent **Yu.A.Ahrorov**

Taqrizchlar: SamDU dots.**A.Abdumannotov**
SamDCHTI p.f.n.**S.Yuldasheva**

ISBN 978-9943-45-33-06

©Samarqand davlat universiteti

KIRISH

*«Birovga tarbiya berishdan
avval o‘sha odamning o‘zi tarbiya
bilan tanishmog‘i lozimdir»*

Abu Lays Samarqandiy

Bolani komil etib shakllantirishga zamin yaratishda oilaning o‘rni va roli beqiyosdir. Oilada bolani komil inson qilib tarbiyalashga zamin yaratish ota-onalar zimmasiga yuklatilgan. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 64-moddasida «Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdir»¹ - va O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 73-moddasi «Ota-ona o‘z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o‘z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o‘z bolalarining sog‘ligi, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Ota-ona o‘z bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta’lim olishni ta’minlashi shart»² -deb belgilab ko‘rsatilib, ota-onalarga ijtimoiy pedagogik talablar qo‘yadi. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inini tashkil qiladi, oila tarbiyasini to‘g‘ri tashkil qilmay, oilalarning barqarorligini va mustahkam bo‘lishini hamda jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash mumkin emas. Shu nuqtai nazardan yondashganda oila sharoitida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini tashkil qilish, to‘ldirib borish va takomillashtirish bag‘oyat muhim oilaviy pedagogik muammolardandir.

Mazkur muammoni hal qilishida oilaning ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlari oshirish haqida muhtaram Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning «Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarini saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo‘lishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir»³ -deb bildirgan fikri nihoyatda hayotiy. Shuning uchun ham oilada ota-onalar oilaning ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlaridan to‘la-to‘kis foydalanishlari shart. Agar ota-onalar oila sharoitida bunday imkoniyatlardan foydalana olmasalar hayot davom etmay, avlodlar davomiligi ham davom etmaydi. Shuning

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент, «Ўзбекистон», 1992 йил

² Ўзбекистон Республикаси Оила Кодекси. Тошкент, «Адолат», 2012 йил 47-бет.

³ Ўзбекистон Республикаси Оила Кодекси. Тошкент, «Адолат», 2012 йил, 9-бет.

uchun biz ota-onalar xohlaymizmi yo'qmi hayot davom etishi uchun bu talabni bajarishimiz darkor.

Ammo oilaning barcha ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlaridan oila sharoitida barcha ota-onalar ham to'la-to'kis foydalanadilar deb bo'lmaydi. Bu borasida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini tarkib toptirishi oila pedagogikasi va ijtimoiy pedagogika fanlari oldidagi dolzarb oilaviy pedagogik muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun birinchi navbatda pedagogik kadrlarning va ota-onalarning bola ta'lim-tarbiyasi haqidagi maxsus tarbiyachilik ma'lumotlarini hozirgi zamon oila rivojlanishiga qarab to'g'ri tashkil qilish, to'ldirib va takomillashtirib borish talab qilinadi.

Bizningcha mazkur vazifani bakalavriyat yo'nalishida taxsil olayotgan talabalar va ota-onalarni bola tarbiyasi borasidagi tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlashni olib borishni taqazo etadi.

Birinchi bo'lajak bakalavrlar va ota-onalar bola tarbiyasi haqidagi maxsus nazariy ilmiy pedagogik bilimlarga ega bo'lishi.

Ikkinchidan esa bakalavrlar va ota-onalardagi maxsus pedagogik bilimlarni bola tarbiyalash bilan bog'liq amaliy ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi zarur. Bakalavrlar va ota-onalarning ana shu ikki yo'nalishdagi amaliy tayyorgarligi bolani oila sharoitida komil qilib tarbiyalashga zamin, poydevor yaratadi. Bu tashkiliy ishlarni tashkil qilmay, oilada bolalarning komil bo'lib tarbiyalanishiga erishib bo'lmaydi. Ota-onalar oila sharoitida bolaga bevosita ta'sir ko'rsatishning turli qoidalari va tarbiya metodlarini bola tarbiyasida o'z vaqtida o'rnida qo'llay olish ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun ana shunday ikki bosqichda tayyorgarlikni olib borish darkor. Bunday tayyorgarlikning olib borilishida ma'lumotli bakalavr mutaxassislarining ta'siri kata.

Afsuski mamlakatimiz bunday oilalaridagi ota-onalarning bola tarbiyalashdagi hozirgi umumiy tayyorgarligi hozirgi pedagogik talablar darajasida emasligini bizning ota-onalar bilan uzoq yillar davomidagi kuzatishlarimiz, olib borgan suhbatlarimiz tasdiqlab turibdi. Albatta kamchilik oilalarda bola tarbiyasi bo'yicha qo'lga kiritayotgan ota-onalarning yutuklarini e'tirof etish darkor. Ammo bolalarni oilada umumiy tarbiyalash borasida bu yutuqlar mamlakatimizdagi vaziyatni qanoatlanarli tamonga o'zgartira olmaydi.

Ota-onalarning tarbiyachilik faoliyatini tashkil qilishda oilada bola tarbiyasi bo'yicha Respublikada chop qilinayotgan pedagogik

adbiyotlarning, gzeta, jurnal, maqolalarning, radio eshittirish, oynai jaxon ko'rsatuvlari, badiiy adabiyotning ham ma'lum darajada ijobiy ta'siri bor. Ammo oilada bola ta'lim-tarbiyasiga doi rota-onalarga bevosita yordam beradigan, ota-onalar uchun chop qilingan pedagogik adabiyotlar deyarli yo'q va mavjudlari ham umuman talabga javob bermaydi. Respublikamizning turli pedagogik jurnallardan chop qilinayotgan maqolalar orasida oilada bola tarbiyasining qirralari va uni oila sharoitida ota-onalarning amalga oshirish uslublari haqida amaliy yordam beradigan uslubiy tavsiyalar yo'q. Shuning uchun ham oilalarda aksariyat ota-onalarning tarbiyachilik madaniyati past darajada va yuqoridagi maqolalarni o'qiydilar deb bo'lmaydi. Buning ustiga oliygohlarda tayyorlanadigan bakalavr pedagogik kadrlarning o'quv dasturlarida oilada bola tarbiyasi va ota-onalarni bola tarbiyasiga tayyorlash ham ko'zda tutilmagan. Vaholanki oliygohlarni bitirgan pedagogik kadrlar kelgusida oila sharoitida bola tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikda ishlaydilar. Faqat universitetlarning «Pedagogika va psixologiya», «Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish» va «Maktabgacha ta'lim va sport-tarbiyaviy ish» ixtisoslari bo'yicha bakalavrlar tayyorlash o'quv rejalariga «Oila pedagogikasi» fani kiritilganligi ayni muddaodir. Boshqa mutaxassislar «Oila pedagogikasi» fani haqida tasavvurga ham ega emasligini ta'kidlash joiz. Shuning uchun vaziyatni vaqtincha hal qilishning amaliy yo'li birinchi navbatda oliygohlarning o'quv rejalariga eng bo'lmaganda «Oila pedagogikasi» fanini va «Tanlov fan» sifatida o'rganishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lurdi. Shundan keyin bakalavrlar oilada bola tarbiyasi bo'yicha maxsus pedagogik bilimga ega bo'lgan bo'lur edi.

Pedagogik kadrlarni ota-onalar bilan ishlashga tayyorlashda yuqoridagi muammolar oila sharoitida bolani komil tarbiyalashga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning oldini olish juda muhim.

Bizningcha oliygohlarda malakali pedagogik kadrlarni va oilalarda ota-onalarni oila sharoitida bola tarbiyasiga amaliy tayyorlashda bola ta'lim-tarbiyasiga oid ilmiy-nazariy va uslubiy tomondan bo'lajak bakalavrlar, ota-onalarga amaliy yordam berish maqsadida metodik qo'llanma yaratish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Bo'lajak bakalavrlar va ota-onalarga oila tarbiyasida bola tarbiyasining qirralari mazmuni, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari haqida tizimli maxsus pedagogik ma'lumot berish hozirgi davrning o'ta dolzarb oilaviy pedagogik muammolaridandir.

Pedagogik kadrlar va ota-onalar bola tarbiyasining asosiy qirralari (aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik) haqida maxsus nazariy ilmiy bilimlarga ega bo'lmog'i va oila sharoitida ularni amalda mustaqil qo'llash ko'nikmalarini o'zlarida tarkib toptirishlari shart. Aksincha bola tarbiyasida va ijtimoiy ta'lim-tarbiya muassasalarida bolani oila, ijtimoiy hayotga va ishlab chiqarishga tayyorlashda ko'plab muammolar bo'laveradi. Bular asosan, ba'zi bolalarning o'z ota-onalarini talab darajasida hurmat qilmaydigan, voyaga yetgandan keyin ularga g'amxo'rlik qilmaydigan, topshiriqlarini bajarmaydigan, shaxsiy manfaatni oila manfaatidan ustun qo'yadigan, sigareta, spirtli ichimlik va giyohvandlikka mayl bo'lgan, milliy an'ana, urf-odat va qadriyatlarga past nazar bilan qaraydigan, ovro'pacha xulq-atvor, turmush tarziga taqlid qiladigan xullas millat manfaatiga to'g'ri kelmaydiganlari afsuski topiladi. Oilada bunday holatlarning yuz berishi o'sha ota-onalarning bola tarbiyasidagi nuqsonlari oqibati deb xulosa chiqarish mumkin.

Shuning uchun hech bo'lmaganda hozircha bo'lajak bakalavrlar va ota-onalar oilada bola tarbiyasining asosiy qirralari bo'yicha dastlabki zaruriy umumiy nazariy, ilmiy bilimga ega bo'lmog'i va ularni bolaga tadbiq qilish uslublari haqida tajribaga ega bo'lmoqlari ayni muddaodir.

Tavsiya etilayotgan mazkur uslubiy qo'llanma «Oila sharoitida bola tarbiyasining qirralari va uslublari» yuqoridagi oilaviy pedagogik muammolarni amaliy hal qilish vazifasini o'taydi. Bu masala respublikada hal qilinmagan. Ushbu metodik qo'llanma oila sharoitida bola tarbiyasining maqsad, vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi degan fikrda bo'lajak bakalavrlarga va ota-onalarga tavsiya qilmoqdamiz.

Bo'lajak bakalavrlar va ota-onalar unda bola tarbiyasi har bir qirralarining maqsadi va undan kelib chiqadigan ijtimoiy mas'uliyatni amaliy his qiladi va vazifalarni aniq bilib olishadi. Muhimi oila sharoitida ota-onalar bolani to'g'ri tarbiyalashning mohiyatini anglab bilib o'zlariga, oilasiga va mamlakatga ma'naviy, moddiy foydani anglab yetadilar.

Qo'llanmada bo'lajak bakalavrlar va ota-onalarga bola tarbiyasining asosiy maqsadi va vazifalari mashhur pedagoglarning fikrlari hamda hozirgi zamon rasmiy (me'yoriy) xujjatlarida nazarda

tutilgan talabalari uyg'unlashtirilib, oila hayoti bilan bog'lab ko'rsatishga xarakat qilingan.

Shuning uchun ushbu uslubiy qo'llanma bo'lajak bakalavrlarni bola tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashga va ota-onalarni bola tarbiyasining qirralari bilan ishlashga tayyorlashda kerakli ko'nikmalarni tarkib toptirishga bevosita uslubiy yordam beradi degan fikrdamiz. Asosiy bo'lajak bakalavrlar va ota-onalarni oila sharoitida bola tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari, jihatlari haqida maxsus nazariy, ilmiy bilimlar bilan qurollantiradi va uslubiy tomondan bolalarga ta'sir ko'rsatish amaliy ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, bo'lajak bakalavrlar va ota-onalarda bola tarbiyasining qirralarini (tarkiblarini) amalga oshirishning ahamiyatini bilish, oila sharoitida ota-onalarning kundalik topshiriqlarni o'z bolasiga bajartirish yoki bajartirilmaslik qanday oqibatlarga olib kelish ko'rsatilgan. Va nihoyat ota-onalarning, bakalavrlarning tarbiyachilik madaniyati ortib borishga xizmat qiladi.

Shunday qilib bakalavrlar va ota-onalarning nazariy ilmiy va uslubiy tashkiliy pedagogik ishlarning barchasi mamlakat oilalarida ota-onalarning o'z bolalariga ko'rsatadigan tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirishga va ularda tarbiyachilik madaniyatlarini tarkib toptirishga zamin yaratadi. Buning oqibatida oilalarning mustahkam va barqaror bo'lishi ta'minlanadi. Shuningdek mamlakatning ma'naviy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining zaruriy sharti ham bo'ladi.

Oilada bolani aqliy tarbiyalash

Oilada bolalarni komil inson etib shakllantirish uchun ularning aqliy tarbiyasini maqsadli tashkil etish pedagogika va psixologiya mutaxassislari, ota-onalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki, aqliy tarbiyani to'g'ri tashkil qilish tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlarining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga xizmat qiladi. Bolaga aqliy tarbiya bermay turib uni oila va ijtimoiy xayotga tayyorlab bo'lmaydi. Oilada bolalarning bilimli bo'lishi haqida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 73-moddasida «Ota-onalar bolalarining bilim olishlari uchun mas'uldirlar»¹, deb belgilangan. Demak, oilada ota-onalar o'z farzandlarining umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim olishlari uchun g'amxo'rlik ko'rsatishlari va qulay shart-sharoit yaratib berishlari lozim. Oilada ota-onalarning vazifasi farzandlari

¹ Ўзбекистон Республикаси оила кодекси. Тошкент, «Адолат», 1912, 46-бет

o'qishi, o'rganishi uchun o'quv xonasi, jihozlar, darsliklar va badiiy kitoblar bilan ta'minlashdan iborat.

Oilada bolalarni bilimli etib tarbiyalashda Birinchi Prezidentimiz ning «Komil inson deganda biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga iborat bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz», -deb bildirgan fikri amaliy ahamiyatga ega. Chindan ham bilimli odam teran fikrlaydi, mustaqil bo'ladi, boshqalarga tobe bo'lmaydi va o'z kuchiga ishonadi. Aksincha bilimsiz insonda esa bu sifatlar tarkib topmaydi. Oqibatda inson mustaqil bo'la olmaydi va oilada ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun oilada farzandlarni aqliy tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Oilada farzandlarni aqliy tarbiyalashda sharqning mashhur allomasi Abu Rayxon Beruniyning «Ilm chashmasi nur sohib turmasa, yaxshiliklarning yaxshiligini, yomonliklarning yomonligini bilmaymiz», -deb bildirgan fikri juda qimmatli. Haqiqatdan ham bolaning bilimli bo'lishi hayotda uchraydigan yaxshi yoki yomon narsalarning farqiga borishga o'rgatadi.

Abdulla Avloniy ilmning inson hayotida, kamolotida tutgan o'rni va amaliy, ahamiyati hususida «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida: «Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki ilm bizga (har kimga U.Sh.) o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayirib berur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir»¹, -deb bildirgan fikri diqqatga sazovor va oilada bolalar, aqliy tarbiyasining asosini tashkil etadi. Buning uchun pedagogika va psixologiya mutaxassislari, ota-onalarning o'zlari oilada, aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniq bilishlari darkor.

Bolaning aqliy tarbiyasini me'yorida tashkil qila olmay oilada aqliy tarbiyaning maqsadi bakalavrlar, ota-onalarga va ayniqsa bolalarga bilimli bo'lmasdan o'z maqsadiga erisha olmasligini tushuntirish, anglatishdir.

Oilada aqliy tarbiyaning vazifasi esa olgan bilimlarni shaxsiy hayotda qo'llash bilan bog'liq ko'nikma, malaka, odatlarni tarkib toptirish orqali komil inson bo'lishiga tayyorlashdan iborat.

Ammo, faqat ota-onalarning farzandlarni, aqliy tarbiyalash haqidagi bilimlarning, ma'lumotlarning o'zi yetarli emas. Ana shu

¹ Авлоний Абдулла Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, «Ўқитувчи», 1992, 22-бет


bilimlarni bolalar ongiga singdirish bo'yicha amaliy ko'nikmani o'zida tarkib toptirishi va uni hayotda qo'llashni uddalay olishi shart. Aks holda ota-onalarning bu boradagi harakatlari, intilishlari zoye ketadi. Yana ota-onalar bolalarga aqliy jihatdan ta'sir ko'rsatish qoidalarini va uning metodikasini bilishi hamda ularga nisbatan talabchan bo'lishlari lozim. Talabchan bo'lmasa, yosh bola ilmning mohiyatini, hayotdagi ahamiyatini avval tushunmaydi, oqibatda rivojlanishdan orqada qoladi. Muhimi ota-onalar bolaga singdirilayotgan bilim, uning kelajagi uchun juda ham zarurligini hayotiy misollar bilan tushuntirib unga ishontirish kerak. Masalan, bilimli inson o'z shaxsiy xayotini o'zida bor bo'lgan bilimi asosida to'g'ri tashkil qiladi va o'z maqsadiga yetadi, yaxshi yashaydi hamda baxtli bo'ladi. Bilimsiz yoki kam bilimli inson esa buning uddasidan chiqa olmaydi, chunki uning bunga aqli yetmaydi deb tushuntirilishi juda foydali. Shuning uchun insonning bilimli bo'lishi o'z kelajagini qurishning zaminiligiga bolani ishontirish juda muhim. Oilada bolaning aqliy ta'lim-tarbiyasi quyidagi shakl, metod va qirralardan tashkil qilinsa uning samaradorligi ta'minlanadi degan xulosani aytishimiz mumkin (1-slayd).

Ota-onalar bolalarni aqliy rivojlantirishda o'zbek halqining «aql ulug'likka, aqlsizlik esa tubanlikka yetaklaydi», «Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r-mingni» kabi hikmatlari hamda «Yoshlikda olingan ilm, toshga o'yilgan naqsh kabidir», «Beshikdan qabrgacha ilm izla» kabi hadislarning ma'nosini farzandlar ongiga singdirishlari ularni aqlli etib tarbiyalashning asosiy yo'li hisoblanadi. Bolaga yoshlikdan singdirilgan, aqliy ta'lim-tarbiya uning fikr qilishga va mustaqil bo'lishiga poydevor yaratadi. Bundan ham bola ham oila ham davlat baravar manfaat ko'radi. Muhimi bola bolaligidanoq aqliy jihatdan to'g'ri tarbiyalanadi, shakllanadi.

Oila sharoitida ota-onalarning eng asosiy vazifasi bolalarda bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini, maylini tarbiyalashga erishishidir. Buning uchun ota-onalar bolalar tomonidan so'raladigan turli savollarga befarq bo'lmasligi, ularning bilishga oid intilishlarini, diqqat bilan kuzatib borishlari va harakatlarini qo'llab-quvvatlashlari juda foydali. Bilimga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda qiziqqan yo'nalish bo'yicha ilmiy, badiiy adabiyotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash, taniqli allomalarning uy muzeylariga sayohatga borish ular hayoti faoliyati bilan tanishish, kinofilmlar ko'rish, internet

axborotlarini o'rganish kabi oilaviy tarbiyaviy tadbirlar bolalar bilimlarining ortishiga, mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1-slayd. Oilada aqliy tarbiya.



Oilada farzandlarning o'quvchilik yoki talabalik davrlarida oynai jaxon orqali tomosha qiladigan «O'yla, izla, top», «Zakovot», «Intellectual ring», «Iqtidor», «Axborot», «Chempion sirlari», «Ertaklar - yaxshilikka yetaklar», «Mo'jizalar maydoni», «Rangin dunyo» kabi ko'rsatuvlar va ularning muhokamasini ota-onalar boshchiligida tashkil qilish bilishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Mahalla yoki qishloqda ma'lum yoshdagi V-IX-sinf o'quvchilarning fanlar bo'yicha oilalararo «Bilimdonlar» musobaqasini o'tkazib mahalla, hokimiyat, Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati vakillarining homiylar, ota-onalar bilan hamkorlikda moddiy, ma'naviy rag'batlantirib borishi kabi oilaviy tadbirlar o'z navbatida mas'uliyatni his qilmaydigan ba'zi ota-onalarning o'z farzandlari aqliy tarbiyasidagi faolligini oshirishga olib keladi. Hamda oila, maktab, mahalla, mehnat jamoalarining hamkorlikda ishlashga amaliy yordam beradi.

Shunday qilib oilada bolalarning, aqliy tarbiyasini maqsadli tashkil qilish, komil insonni shakllantirishning, oilaviy va ijtimoiy hayotga tayyorlashning, oilani mustahkamlashning qolaversa mamlakatni iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlantirishning tarkibiy qismi bo'lmog'i zarur.

Oilada bolani maktabga tayyorlash

Oilada bolani maktabga tayyorlash aqliy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Bola 6-7 yoshidagi vazni, buyi, suyak, muskul tizimining rivojlanishi uning jismoniy, ruhiy aqlining o'sishini ta'minlashga asos bo'ladi. Uning sezgi organlari, tasavvuri, diqqati, esda olib qolishi, fikrlashi bilan bog'lik intilishlari va irodasi kabi sifatleri deyarli tarkib topgan.

Bolaning o'qish, yozishga bo'lgan mayli, xoxishi tobora ortib boradi. Endi bolaning ana shu intilishini qo'llab-quvvatlash, kattalarning, ota-onalarning asosiy vazifasi xisoblanadi.

Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda avvalo uning jismoniy uyindagi xarakatlarini, rasm chizishga bo'lgan intilishlarini, ko'rgan, bilgan voqeya-xodisalarini aytishga, musiqa tinglash, o'yinchoklarni extiyotlab saqlash, kiyimlarni kiyish, yechish, ota-onaga yordam berish kabi faoliyatlarni kuzatib, u haqda ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Unda ota-ona bolaning yuqoridagi faoliyatlarida aqliy rivojlanish darajasi va mustaqilligi qanday tarkib topayotganligiga

asosiy e'tiborni qaratishi kerak. Chunki, bularning barchasi bolaning uyini, mehnati jarayonidagi aqliy darajasi, mustaqilligi, tengdoshlari bilan bo'ladigan muomala va munosabatlarida o'z ifodasini topadi.

Shuning uchun bola faoliyatining rang-barang bo'lishiga yordam beradigan tadbirlar, sayrlar, teatr, multfilm tomoshalari, ertaklar olamiga yetaklash, rangli kitoblar bilan ta'minlash, unda madaniy ko'nikmalarning tarkib topishida, aqlining o'sishida muhim o'rin egallaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning asosiy faoliyati asosan o'yinni tashkil kiladi. Uning maktabga jalb qilinishi bilan bola xayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. U endi o'zining erkin uyinidan ma'lum darajada voz kechib, o'qish talab qiladigan to'siq va qiyinchiliklarni yengib o'tishida o'z aqliy kuchi va irodasiga tayanadi.

Bolaning o'yin, mehnat faoliyatidagi mustakilligi vaqt o'tishi bilan tarkib topa boradi, va bu sohalarda bolaning o'z tasavvuri, fikrlashi muayyan darajada shakllanib boradi. Yuqoridagi barcha tashkiliy tadbirlar bolaning o'qish faoliyatiga tayyorlashning poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Oilada ota-onalar birinchi galda o'z bolasining o'qishga bo'lgan munosabati haqida boshlang'ich sinf o'qituvchisiga tug'ri, asosli ma'lumot berishi juda muhim va foydalidir. Ota-onalar o'g'li yoki qizining sog'ligi, intilishlari, xarakatlari, fe'l-atvori, o'qish, yozishga bo'lgan munosabatlari va umumiy tayyorgarligi to'g'risida aniq ma'lumot bersa, bolani maktabga tayyorlash oson kechadi.

O'zbekiston Respublikasining «Bola xuquqlari kafolatlari tug'risidagi Qonun»da bolaning bilim olish xuquqi belgilangan va uni bajarish ota-onalar zimmasiga yuklatiladi. Shuning uchun bolaning bilim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirishda ota-onalar o'ta mas'uliyatli bulishlari va ularni xozirgi talablar asosida uddalashlari lozim. Ba'zi ota-onalarning bu masalaga jiddiy yondoshmaganlari, xatto befarq bo'ladiganlari ham kam bo'lsada, uchraydi. Bunday hol bolaning o'qishiga jiddiy ziyon yetkazadi. Natijada tengdoshlardan ortda qolishga olib keladi.

Bizningcha oilada ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda quyidagi yo'nalish va mazmunda tashkiliy ishlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq.

- bolaning o'quv jihozlari: kitob, daftar, qalam, ruchka rasm chizish qurollari, o'quv xonasi bilan ta'minlash;

- maktabgacha tarbiya davrida turli rangli rasmlar, xikoya kitoblari bilan ta'minlash va ular bilan mashg'ulotlarni olib borish;
 - oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash;
 - sog'ligi, shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini tarkib toptirish yuzasidan g'amho'rlik va nazorat qilish;
 - bolada turmush ko'nikmalarini tarkib toptirishga muvofiq bo'lish orqali uning madaniylashuviga erishish;
 - sanani, rasm chizish va harf elementlarini bajarishga asta-sekin o'rgata borish;
 - o'yin, o'qish, mehnat va dam olishlarini uygunlashtirish;
 - bolani o'qishga ruxiy, aqliy va ma'naviy jihatdan tayyorlash;
 - bolani topshiriqlarni bajarishda burchni xis qilishga, ongli bajarishga ko'niktirib, odatlantirib borish;
 - bolaning lug'at boyligini orttirishga, talaffuzining, nutqining rivojlanishiga, o'z fikrini aytib berishga o'rgatib borish;
 - bolaning yosh va individual xususiyatlarini yaxshi bilishi, o'rganishi;
 - ota-onalar boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda ishlashi;
 - bolaning bilim olishga bo'lgan maylini, xoxishi va intilishlarini ta'minlash va tarkib toptirish;
- Yuqoridagi tashkiliy tadbirlar bolaning maktabga tayyorgarligini ta'minlovchi omillardir.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Oilada aqliy tarbiya nima uchun tarbiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida shakllantiriladi?
2. Aqliy tarbiya tarbiyaning boshqa qismlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Oilada aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
4. Oilada bolani aqliy tarbiyalashning qanday shakl, metod va vositalari mavjud?
5. Bolani aqliy tarbiyalashda ota-onalarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Bolani aqliy tarbiyalashdan oila va jamiyat qanday manfaat ko'radi?

Oilada bolani axloqiy tarbiyalash

«Kimda kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lgach, baxtli bo'la olmaydi. Xo'l novdani istagancha bukish mumkin. Quruq novdani esa faqat olovda toblab to'g'rilash mumkin»

Sa'diy Sheroziy

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning «Biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak, sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'likni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar kamol topgan insonni tushunamiz»¹, va yana «Albatta, farzandga mehr qo'yish ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga etibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushushini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin»² -deb bildirgan fikrlari oilada bola axloqiy tarbiyasining asosini tashkil etadi. Chunki milliy axloq tarbiyasi bilan umumbashariy axloq o'zaro uyg'unlikda farzandlar hayotida o'zaro amalga oshirilganda, oila tarbiyasi mustahkamlanadi va bolalarni komil inson etib tarbiyalashga zamin yaratadi.

Oila va ijtimoiy tarbiyada axloq tarbiyasining inson kamolotidagi tutgan o'rni haqida Yusuf Xos Xojib «Kimning odobi va axloqi to'g'ri bo'lsa, u kishi o'z maqsadiga yetadi va baxt unga kulib boqadi, zero, yaxshi axloq-jamiyat, yaxshiliklarning zaminidir»³ va yana «Halol, haqgo'y, axloq-odobli kishi, har qanday qimmatbaho narsadan ham qimmatli»³, -deb bildirgan fikrlari oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashga asos bo'ladi.

Haqiqatan ham inson oiladami yoki ijtimoiy hayotdami o'zining odobi, axloqi bilan qadr, hurmat topadi, maqsadiga yetadi va baxtli bo'ladi. Insonning axloqli bo'lishi shu insonning oilada, maktabda, mehnat jamoasida, ijtimoiy hayotda hurmatini, obro'sini, mavqeyini oshiradi. Aksincha axloqsiz bo'lsa, u insonning hurmati, qadri, mavqeyi bo'lmaydi. Hatto axloq faqat bir insoningagina emas, balki

¹ Islom Karimov Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тарққиёт йўли. Тошкент, «Ўзбекистон», 1992, 28-бет.

² Islom Karimov. Юксак маънавият-енгилмас куч, Тошкент, «Маънавият», 2008, 55-56-бетлар.

³ Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу – билиг. Тошкент, «Фан», 1972, 867 ва 299 - бетлар

jamiyat a'zolarini, yaxshiliklarni, ezguliklarni yuzaga keltiruvchi tarbiya vositasidir. Shuningdek, insonni qadrli qilishga zamin, asos yaratadi va inson o'z axloqi bilan qadrli bo'lib qolaveradi. Xususan oila va jamiyat insonlarni axloqiy tarbiyalashdan moddiy-ma'naviy manfaat ko'radi. Bu o'z navbatida davlatning, jamiyatning moddiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Hozir mutaxassislarning, ota-onalarning farzandlarga axloqiy tarbiya berishdagi vazifalari O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi 73-moddasida: «Ota - onalar o'z bolalarining sog'ligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart»¹, deb belgilangan. Shundan kelib chiqib, oilada mutaxassislarning, ota-onalarning bolalarni axloqiy tarbiyalashdagi asosiy vazifasi belgilangan. Ana shu mas'uliyatni his qilish va uni bolalar hayotiga tadbiq qilish ota-onalarga yuklatiladi. Ayniqsa farzandlarni milliy tarbiyasini tashkil qilishda muammolar anchagina. Masalan, bolalar orasida hozirgi paytda sharqona, o'zbekona axloq qoidalarini bilmaydiganlarini topiladi. Buning uchun avvalo mutaxassislar, ota-onalar oilada axloq tarbiyasining maqsad va vazifalarini o'zlari ilmiy jihatdan bilishlari lozim.

Oilada axloq tarbiyasining maqsadi bakalavrlar, ota-onalar va ayniqsa bolaga axloqning mohiyati, mazmunini anglatish orqali axloqiy bilim, ma'lumotni, ongni shakllantirishdir.

Axloq tarbiyasining vazifasi esa ana shu bilimlarga tayanib bolalarda kerakli hayotiy-axloqiy ko'nikma, odatlarni tarkib toptirish asosida komil bo'lishga poydevor yaratishdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirishni oilada farzandlarning bolalik davridan boshlash yaxshi natija beradi. Bu xususta mashhur chex pedagogi Ya.A. Komenskiyning «Inson tabiatiga bolalikda singdirilgan fazilatlarga mustahkam va ishonchli bo'ladi», deb bildirgan fikri qimmatli.

Sa'diy Sheroziy «Guliston» asarida **«Kimda kim yoshlikdan tarbiya olmasa, kata bo'lgach, baxtli bo'la olmaydi. Xo'l novdani istagancha bukish mumkin. Quruq novdani esa faqat olovda toblab to'g'rilash mumkin»**, deb o'rinli ta'kidlagan. Shuning uchun ota-onalar o'z farzandlariga axloqiy tarbiya berishni bolaligidanoq ya'ni ular ulg'ayayotgan davrdan boshlamog'i maqsadga muvofiq.

Shvesariya pedagogi I.G.Pestalossi axloqiy tarbiyaning eng asosiy masalasi insonga muhabbatdir, bu muhabbat oiladan

¹ Ўзбекистон Республикаси оила кодекси. Тошкент, «Адолат», 2012, 46-47-бетлар

boshlanadi. «Ota-onanig uyi axloq maktabidir», -deb axloq tarbiyasining makoniga to'g'ri baho bergan va ularga katta mas'uliyat yuklagan. Haqiqatan ham bola axloqi insonga muhabbatdan boshlanadi va u dastlab oilada va keyinchalik uzluksiz ta'lim tizimida singdiriladi.

Bu muhabbat bolaning axloqiy tushunchasini, ya'ni ongni tarbiyalashda ota-onaga, keksalarga, kata-kichiklarga hurmati, e'tibori keyinchalik mahallasi, millati, xalqi umuman, mamlakatiga, uning tabiatiga, o'zgalarga, Vataniga bo'lgan munosabatlarida o'z ifodasini topadi. Farzandlarda axloqiy munosabatni shakllantirish uchun har qaysi narsalarning inson hayotidagi o'rnini haqida ilmiy axloqiy ma'lumot berish kerak. Aytaylik ona zamin, o'simlik, hayvonot olami, odamlar, oila va boshqalar haqida to'g'ri bilimga ega bo'lishi darkor. Bolada shu bilimlar asosida axloqiy munosabat shakllanadi.

Oilada farzandlarni axloqiy tarbiyalashda mashhur o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy axloq haqidagi bilimni farzandlar ongiga singdirish amaliy ahamiyatga ega. «Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur»¹. Ota-onalar bolalarda yaxshi bilan yomonning farqini tushuntirish, ularda axloq haqida bilim, ko'nikma, xulq-atvorni tarbiyalashning asosi hisoblanadi. Bolalarni axloqiy tarbiyalashda axloq haqida ma'lumot berishning o'rnini beqiyos. Bola jamiyat tomonidan o'rnatilgan talablarga, yani yaxshi va yomon, nima mumkin-u, nima mumkin emas, to'g'ri yoki noto'g'ri singari qoidalarga amal qilish uchun eng avvalo shu qoidalarining mohiyatini, mazmunini bilishi lozim. Oilada ota-onani, keksalarni, aka-ukalarni va o'zgalarni hurmat qilish, halqni sevish, vatanparvar, oilaparvar bo'lish kabi sifatlar ham oilada tarkib topadi.

Farzandlarni axloqiy shakllantirishda mashhur tatar pedagogi Rizouddin ibn Faxriddinning **«Maktab muallimlari bolani o'qish va yozishga o'rgatsalarda, tabiatu xulq to'g'risida onalar o'rgatadigan narsalarni o'rgata olmaydilar. Shuning uchun bola tarbiyasi yuzasidan bo'lgan xizmatlarning eng ulug'i onalar zimmasiga tushadi»**² va yana **«Bolalarga go'zal tarbiya etish uchun tarbiya etuvchi ota-onalarning yoki valishlarning o'zlari tarbiyali bo'lmoqlari shartdir. Agarda ular beradigan tarbiyalari**

¹ Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, «Ўқитувчи», 1992, 11-бет.

² Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. Тошкент, «Меҳнат», 1991йили, 43 бет.

bilan o'zlari odobli bo'lmasalar, umrbod tarbiya etsalar ham bir foydasi ko'rilmagan tarbiya bera bilmagan va xusni-axloq o'rgata olmagan xotindan foyda o'rniga ulug' bolalariga zararlar ko'rilar. Zero bundan xotunlar xalq orasida vabo mikroblaridan zararli bo'lgan insonlan yetishtirurlar»¹, -deb bildirgan fikrlari hayotiydir. Haqiqatan ham oilada ota-onalarning axloqiy jihatdan namuna bo'lishi bolalarni axloqiy tarbiyalashda yo'naltiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Albatta ota-onalarning o'zaro hamkorligi amalda ta'minlansa, bolalar axloqiy tarbiyasi yanada samarali tashkil etiladi.

Ammo ona farzandlar axloqini tarkib toptirishda ular bilan ko'proq muomala va munosabatga kirishadi hamda ko'p vaqtni oilada o'tkazadi. Shuning uchun onaning bolaga axloqiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati katta. Ota-onalar bolalarga axloqiy tarbiya berishda ularda axloqiy burchni his qilishga o'rgatishi juda muhim. Chunki, axloqiy burchni his qilgan bola keyinchalik o'qish va mehnat faoliyatida qolaversa, ijtimoiy hayotda ham faol bo'ladi. Bu farzandlarning ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topishda asosiy rol o'ynaydi. Ota-onalar oilada o'z farzandlari ongiga ota-onani, oila a'zolarini, keksalarni, o'zgalarni albatta hurmatlash, qadrlash shartligini va bu ularning burchi, vazifasiligini anglatib borishi juda muhim. Qolaversa ularni hurmat qilmay, qadrlamay, o'zlari ham ular tomonidan hurmat qilinmasligini uqtirishi shart.

Oilada bolani axloqiy tarbiyalash jarayoni ota-onalar tomonidan quydagi ko'rinish va yo'nalishda tashkil etilganda uning samaradorligi ta'minlanadi.

Oilada ota-onalar farzandlarini axloqiy tarbiyalashda ularning o'qigan badiiy kitoblardagi qahramonlar, ko'rgan multfil'm, kinofilm, teatr obrazlari yoki mahalladagi voqyealarning axloqiy jihatlarini muhokama qilib borishni yo'lga qo'yish ularning axloqiy shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yana ota-onalar axloq to'g'risida maqol, rivoyat, hikmat, hadis materiallaridan bolalarning yosh, individual xususiyatlari va tarbiyalanganlik darajasini hisobga olib, tahlil qilib borishlari, ularning axloqiy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi va o'z samarasini beradi.

Umuman, ota-onalar bolalarni axloqiy tarbiyalashda uch yo'nalishda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatsalar, axloq tarbiyasi samarali amalga oshadi. **Birinchi yo'nalishda** ota-onalar farzandlarda axloq haqida ilmiy bilim, ma'lumotni tarkib toptirishi, ya'ni ongini

¹ Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. Тошкент, «Меҳнат», 1991йли, 11-бет.

shakllantirishi. **Ikkinchi yo‘nalishda** farzandlarni olgan bilimi, ma’lumoti asosida axloqiy ko‘nikma, malaka va odatlarni mustaqil bajarishga o‘rgatmog‘i ya’ni tajribani shakllantirmog‘i darkor. **Uchinchi yo‘nalishda** esa axloq to‘g‘risidagi bilim, ma’lumot tarkib topgan axloqiy ko‘nikmalarni oila va ijtimoiy hayotda qo‘llashga o‘rgata olishi darkor. Shunday qilib oilada ota-onalar bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni oila va ijtimoiy hayotga tayyorlash orqali barkamol insonni shakllantirgan bo‘ladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Nima uchun oilada axloq tarbiyasi tarbiyaning asosiy tarkibiy qismi?
2. Axloq tarbiyasi haqida Sharq-G‘arb mutafakkirlari, taniqli pedagoglar qanday fikrlar bildirgan?
3. Oilada axloq tarbiyasining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
4. Bola axloq tarbiyasining qanday shakl, metod va vositalari mavjud?
5. Nima uchun bolalarda axloqiy ko‘nikma va odatlar tarkib topdiriladi?
6. Bolani axloqiy tarbiyalashda ota-onalarning asosiy vazifalari nimadan iborat?

Oilada bolaning mehnat tarbiyasi

Oilada bolaning mehnat tarbiyasi tarbiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Haqiqatan ham mehnat insonni kamol toptirishda asosiy omil hisoblanadi. Mehnat insonni shakllantiruvchi qudratli vosita. Inson nima bilan faxrlansa, e‘zozlansa va nimalarga erishsa, ularning hammasi mehnat natijasidir.

Mehnat barcha boyliklarning manbai bo‘lish bilan birga, u inson hayotining mazmuni hamdir. Mehnat oilaning mustahkam bo‘lishi va jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotining zamini, poydevori hamdir. Shuningdek, mehnat insonning, oila a‘zolarining, millatning to‘q va farovon yashashining zaruriy sharti hamdir. Bunga erishishning yo‘li oilada ota-onalarning bolani mehnatga odatlantirish va mehnat faoliyatiga amaliy tayyorlash bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham hozir oilada bolalarni mehnat asosida shakllantirish dolzarb pedagogik, ijtimoiy muammo bo‘lib qolmoqda. Mazkur muammoni hal etish uchun mutaxassislar, ota-onalar mehnat tarbiyasining inson hayotida tutgan o‘rni haqida sharq-g‘arb mutafakkirlari va mashhur pedagoglarning qarashlaridan xabardor

bo'lishlari lozim. Oilada bola mehnat tarbiyasining samarali bo'lishiga zamin yaratadi.

Xususan, Abu Rayxon Beruniyning "Insonning asosiy burchi va vazifasi -mehnat qilishdir, chunki istalgan narsaga mehnat sarflash orqali erishiladi"¹, deb bildirgan fikri diqqatga sazavordir.

Abu Ali ibn Sino esa "Bola o'z mehnati bilan o'zini boqish qurbiga ega bo'lgandan keyingina otaning o'g'liga (yoki qiziga) bergan mehnat tarbiyasi tugallangan hisoblanadi"² -deb ota-onalarga bergan maslahati oilada bola mehnat tarbiyasida hayotiydir. Oilada bola mehnat tarbiyasi uning kamolotida tutgan o'rni haqida mashhur rus pedagogi K.D. Ushinskiyning "Tarbiyaning o'zi agar kishining baxtli bo'lishini istasa, uni baxt uchun tarbiyalamasligi, balki hayotdagi mehnatga tayyorlashi kerak", -deb ota-onalarga bergan maslahati qimmatli va hayotiydir.

Bolani mehnatga jalb qilish, ko'niktirish va odatlantirish ota-onalarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Albatta bu mas'uliyat oilada ota-onalar zimmasiga yuklatiladi. Buni amalga oshirish uchun ota-onalar oilada mehnat tarbiyasining maqsad, vazifalarini va kelgusidagi istiqbollarini ilmiy jihatdan tasavvur etishlari va uni oila sharoitida tadbiq qilishlari zarur.

Oilada mehnat tarbiyasining maqsadi ota-onaga ayniqsa bolaga mehnatning inson hayotidagi tutgan o'rni va rolini tushuntirish, anglatishdir. Vazifasi esa bolani mehnat tarbiyasi xususidagi bilimlarni ishlab chiqarishning u yoki bu tarmoqlarida, oila hayotida qo'llash bilan bog'liq amaliy ko'nikma, odatlarni tarkib toptirish orqali komil insonni shakllantirishga zamin qo'yishdan iborat.

Bizningcha, bolani mehnatga ko'niktirishda, o'rgatishda, odatlantirishda quyidagi mehnat sifatlarini tarkib toptirish oila mehnat tarbiyasining ustivor va bosh vazifasi bo'lmog'i zarur, ya'ni ana shu maqsad, vazifani ota-ona oilada o'z farzandiga singdira olsa, oilasi, mamlakati uchun foydali, mehnatsevar komil inson bo'lib tarbiyalanadi. Aksincha mehnatning mohiyatini tushunmasa, oilada ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham ota-ona oilada bola mehnatini maqsadli tashkil etishi shart.

Oilada bola mehnatini to'g'ri tashkil qilishda dastlab bolani o'z-o'ziga xizmat qilishdan boshlamoq lozim. Qo'l-betini toza yuvish, o'rni tartibga keltirish, o'yinchoqlarini toza va ehtiyotkorlab o'ynash

¹ Абу Райхон Беруний Минериология. Ташкент, 1963 йил, 9-бет.

² Ирисов А. Ибн Сино маърифатпарвар адиб. Тошкент, 1962 йил, 10-бет.

hamda shu bilan birga oiladagi oddiy ishlarni uddalash, oyoq kiyimlarini tartibli qo'yish, dasturxondagi idishlarni olishga yordamlashish, asta-sekin oila xo'jalik yumushlariga jalb etish, gullarni parvarish qilish, xonadonni toza saqlash singari vazifalarni bajarishda ota-onaga va oila azolariga yordam berishlari lozim.

Ota-ona bolani shu taxlit mehnatga o'rgatib borsin, unda fahm-farosatni tarbiyalasin. Oilada bola bajargan katta-kichik mehnatni to'g'ri baholash, ayrim nuqsonlarini bolaga tushuntirish kerak. Bola o'z mehnati bilan oilasiga hissa qo'shganligini sezsин. Ayniqsa, mehnat qilish odobiga e'tibor berish lozim. Boshlagan ishni oxiriga yetkazish, minnat qilmaslik, mehnatdan zavqlanishga o'rgatish kerak.

Oilada bolani mehnatga ko'niktirish va o'rgatishda quyidagi mehnat turlari:

- o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, oila a'zolariga xizmat ko'rsata olish;
- o'quv mehnati;
- oila xo'jalik mehnat;
- ishlab chiqarish mehnati;
- ijtimoiy foydali mehnat;
- kasb mehnati bo'yicha ma'lumot berish va tayyorgarlikdan o'tishi maqsadga muvofiq. Bola mehnat tarbiyasining bosqichma-bosqich shakllanishiga sharoit yaratadi. Natijada uquvli bo'lib tarbiyalanib boradi. Bolaning ushbu mehnat turlarida mashg'ul bo'lishi uni mustaqil uquvli mehnatga ko'niktirish bilan uni oila va ijtimoiy hayotga tayyorlashga zamin yaratadi. Chunki bola mehnatga o'rganmasdan, odatlanmasdan oila va ijtimoiy hayotni davom ettira olmaydi. Shuning uchun oilada ota-ona bolani bolaligidanoq turli mehnat ko'nikmalarini mustaqil bajarishga o'rgatib, odatlantirib borishi juda muhim. Bu hayotning obyektiv ehtiyoji va talabidir.

Agar bola oilada mehnat ko'nikmalarini o'rganmasa, kelgusida uquvsiz, mehnatdan bosh tovlovchi, mehnatning inson hayotida tutgan o'rnini va amaliy ahamiyatini tushunmaydi. Xalq iborsi bilan aytganda og'irning ustidan, yengilning ostidan yuradigan (bosh tovlovchi) bo'ladi.

Oilada bola mehnatini tashkil qilishda ota-onalar mashhur rus pedagogi V.A. Suxomlinskiyning "Mehnatdan tashqari va mehnatsiz tarbiya yo'q va bo'lishi mumkin emas, chunki murakkab va ko'p qirrali mehnatsiz haqiqiy insonni tarbiyalab bo'lmaydi"¹ va yana "Bola mehnatga o'z-o'zidan qiziqib qolmaydi, madomiki, qiziqish

¹ Сухомлинский В.А. Тарбия тўғрисида. Тошкент, "Ёш гвардия", 1977 йил 81-80-бетлар.

bo‘mas ekan, demak mehnatga muhabbat ham bo‘lmaydi, albatta. Bolalar mehnatini noto‘g‘ri uyushtirish uni mantiqsiz bir ishga aylantiradi va u mehnatdan bezib qoladi”¹, -deb bildirgan maslahatiga tayanib bola mehnatini tashkil qilsa, bolaning mehnat tarbiyasi samarali natija beradi.

Oilada bola mehnatini to‘g‘ri tashkil qilish haqida yana bir mashhur pedagog Faxr-ul Banot Subg‘atulloh qizining quyidagi fikri hayotda ota-onalarga qo‘l keladi: “Bu dunyoda har kimning o‘ziga yarasha ko‘p vazifalari ya’ni qiluvchi lozim bo‘lgan ishlari bordir. Tirishganlar mol topar, martabasi ko‘tarilur. Tirishmaganlar mahrumu umudsiz bo‘lur, o‘kinur. Hatto koinot ham hech vaqt jim turmay, o‘zlarining harakatlarida davom etadir. Shuni ham bilmak lozimdirki, odamlarning ishlikli bo‘luvi uchun ish sevuvchi bo‘luvi lozimdir. Istaksiz, zo‘rlab ishlovdan bir ko‘rkam natija hosil bo‘lmas. Olg‘a ketuvni tilab tirishganlar barakayu, ulug‘likka erishurlar. Tirishgan mamlakatlar har vaqt olg‘a keturlar, komil saodatga erishurlar”¹.

Haqiqatan ham bolani mehnatga o‘rgatishda mehnatni sevishtirish odatlantirish bola mehnat tarbiyasining asosiy yadrosini tashkil etadi.

Shuningdek, oilada bolani mehnatga jalb qilish haqida “Avesto”da “Bolalar yosh paytdanoq daraxt ko‘chati o‘tqazish, uy ro‘zg‘or qurolarini yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatish”, zarurligi ta’kidlangan.

Kaykovus “Qobusnoma” asarining “Hunarning afzalligi va qadri baland, oliy tabiatli bo‘lish haqida”gi bobida farzandlarni mehnat qilishga undar ekan, “Agar mehnat qilib badanni o‘zingga bo‘ysindirmasang, sog‘lom va martabali bo‘la olmaysan”, -deb qayd qilingan fikri oila tarbiyasida asosiy o‘rinni egallaydi.

“Har qanday odamga uning qilgan ishlariga qarab baho berish kerak”, -degan Servantes.

Andrey Marua esa “Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag‘ishlaydi, baxt keltiradi”, -deb o‘rinli ta’kidlagan.

O‘zbek xalq maqollarida bolani oilada mehnatga o‘rgatish va mehnat faoliyatiga tayyorlashda: “Gap bilguncha, ish bil”, “Ishlagan-tishlaydi, ishlamagan-tishlamaydi”, “Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan”, “Oltin o‘tda bilinar, odam mehnatda”, “Halol mehnat-yaxshi odat, berur senga saodat” kabi xalq maqollarining mazmuni

¹ Фахр-ул Банот Субғатиллоҳ қизи. Оила сабоқлари. Тошкент, “Ёзувчи”, 1992 йил, 14-бет

ham bolani mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga da'vat qiladi va ota-onalarga katta mas'uliyat yuklaydi.

“Mehnat insonni uch balodan: yurak siqilishidan, axloqiy buzilishdan, muhtojlikdan saqlaydi”, deb ta'kidlangan hadislarning birida. Yuqoridagi manbalarning barchasi oilada bolani mehnatga o'rgatishni va uni hayotga tayyorlashni talab qiladi.

Ota-onalar oilada bolani mehnatga tayyorlashda o'zlari yashayotgan mahalliy hudud ishlab chiqarishi bilan bog'liq tarmoqlar bo'yicha mehnat tayyorgarligini amalga oshirishga alohida etibor berishlari juda muhim. Bunday tadbir bolaning mahalliy ishlab chiqarish bo'yicha kasb tanlashiga poydevor yaratadi. Ota-onalar oilada bola mehnatining ko'p tarmoqli, uquvli bo'lishini ta'minlashda o'z-o'ziga xizmat qilish ya'ni: o'rinini yig'ishtirish, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, o'quv qurollarini, kiyimlarini joy-joyiga qo'yish va toza kiyinish; ota-onalarga yordamlashish, oila xo'jaligida yerga ishlov berish, ekinlarni ekish, uy parranda, hayvonlarini parvarishlash, hosil yig'ishtirish, mahalla, maktab hashar tadbirlarida doimo mehnat bilan mashg'ul bo'lishlariga erishishlari darkor.

Oilada ota-ona tomonidan yuqoridagi mehnat yo'nalishi va tadbirlarda bolaning doimo, uzluksiz mashg'ul bo'lishini ta'minlash, uni mehnatga tayyorlashda amaliy ahamiyatga ega. Bola oilada kamolga yetgan sari uning qiziqishlari bo'yicha kasb-hunarga yo'naltirib borish, uni o'z kasbining ustasi bo'lishiga olib keladi va kelajakda samarali natijani qo'lga kiritishga zamin yaratadi.

Oilada mehnat tarbiyasini to'g'ri tashkil qilishda bolaga mehnatni sevishga, mehnat qilish maylini, hohishini tarbiyalashga e'tibor berishi juda muhim. Bolani mehnatga odatlantirishda u bajaradigan mehnatni sevishga, mehnatdan zavq olishga va mehnatdan manfaat ko'rishga o'rgatib borish darkor. Chunki bola bajarayotgan mehnatni sevmasa, uni mehnatga ko'niktirish, jalb qilish qiyin. Bola shug'ullanayotgan mehnat (ish) birinchi o'rinda o'ziga, oilasiga ya'ni ota-onasi, ukalari keyinchalik esa mahallasiga, millatiga, mamlakatiga ijtimoiy ahamiyati borligini tushunib, anglashi lozim. Muhimi bola o'z amaliy mehnati bilan oilasiga, mahallasiga, millatiga, mamlakatiga munosib hissa qo'shayotganini qalbdan his qilsin.

Asosiysi bola o'z mehnatidan moddiy manfaat ko'rish, uning mehnatga bo'lgan munosabatini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bolaning o'z mehnatidan manfaat ko'rish, uning mazkur mehnatga bo'lgan hohishni, intilishni, harakatni kuchaytiradi va mehnat

natijalarini bilishga da'vat qiladi. Bu yo'l bolani majburiy mehnat qilishni emas, balki ixtiyoriy ravishda mehnat bilan shug'ullanishga o'rgatadi va odatlantiradi.

Ota-onalar bola mehnat tarbiyasida o'z shaxsiy manfaati bilan oila, mehnat jamoasi, o'zgalar va mamlakat manfaatlarini uyg'un bog'lab o'rgatishga erishmog'i darkor. Chunki o'z manfaatini oila va jamiyat manfaatidan ustun qo'yish bolani mag'rurlanishga ya'ni o'zgalar mehnatini tan olmaslikka, faqat o'zi uchun mehnat qilishga o'rgatadi. Shuning uchun ham bolaga shaxsiy va umummanfaat haqida tarbiya berish uning mehnatga munosabatini tarkib topdirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunga bola odatlansa, u hech vaqt va hech qachon o'z shaxsiy manfaatini tengdoshlari, oilasi va jamiyat manfaatidan ustun qo'ymaydi. Bu oila tarbiyasida eng asosiy jihatdir.

Bolani mehnatga o'rgatishda asosiy narsa bola bajarayotgan mehnatga (ishga) oid hatti-harakat ya'ni ko'nikmalarni mustaqil bajarishga o'rgatishdir. Buning uchun amaliy mashqdan ya'ni bajarayotgan ishni qaytadan avval yo'l qo'ygan xatolarni tuzatib bajarishga erishishdir.

Bolani mehnatga jalb qilishda ota yoki onaning bola bajarayotgan ishni bevosita kuzatib, tahlil qilib, unga to'g'ri baho berishi juda muhim. Tahlilda avval bolaning ishni bajarishdagi ilk yutuqlarini ta'kidlab, rag'batlantirib, so'ng yo'l qo'ygan kamchiliklarini aytish, iloji boricha ishni bosqichma-bosqich bajarib ko'rsatish va nuqsonlarini bartaraf qilish yo'llari to'g'risida amaliy yordam berishi juda foydali. Yordam bolaning shu sohadagi intilishini, harakatini oshirishga olib keladi, ishni mustaqil bajarishga da'vat qiladi va amaliy mehnatga tayyorlaydi.

Oilada bolaga mehnat tarbiyasini singdirishda aqliy va jismoniy mehnatga ongli munosabatni tarkib topdirish ham oila tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Buning uchun bolaga bajarayotgan ishi bo'yicha zarur bo'lgan bilimni nazariy jihatdan tasavvur qildirish va amaliy mehnatni bajarish paytida qo'llashligini anglatish kerak. Shundan keyin bolada mehnatning ilk turiga bo'lgan munosabati to'g'ri shakllanadi. Bola mehnat tarbiyasida topshirilgan ishga mas'uliyatni tarbiyalash va uni oxirigacha sifatli bajarishga odatlantirish oila tarbiyasida amaliy ahamiyatga ega.

Yana ota-onalar oilada bola mehnatining ko'p turlari bo'yicha uquvli mehnat ko'nikma, tajribasini tarkib topdirib, takomillashtirib borishga erishmoqlari mehnat tarbiyasida hal qiluvchi omil

hisoblanadi. Bularning barchasi oilada bolani mehnatga tayyorlash ishni sifatli bajarishga, ish qurollarini tartibli, toza saqlashga odatlantiradi. Mehnat tarbiyasida ota-onaning bola mehnat faoliyatini uzluksiz, doimo mashgʻul boʻlishini nazorat qilib borishi va oʻta talabchan boʻlishi juda muhim. Agar talabchan boʻlmasa muammolar kelib chiqadi.

Mehnatning bola ehtiyojiga aylanishiga erishish oila tarbiyasida hal qiluvchi oʻrin egallaydi. Chunki bola mehnat qilishni anglasa-yu, uni odatiga yaʼni kundalik ehtiyojiga aylanmasa, u haqiqiy mehnat asosida tarbiyalangan boʻlmaydi va undan oʻzi ham, oilasi ham mafaat koʻrmaydi. Ayniqsa keyinchalik bola bundan jabrlanadi. Ammo baʼzi ota-onalar bolani mehnatga koʻniktirishda va tayyorlashda yoʻl qoʻyadigan qoʻpol xatolardan biri, oʻz bolalarini ayashlarida koʻzga tashlanadi. Ayrim ota-onalar hali mening bolam mehnat bilan shugʻullanishi erta, keyinchalik oʻrganishga ulgurishadi deb tor fikr yuritishadi. Oqibatda bola mehnatning barcha turlari boʻyicha zaruriy, uquvli mehnat koʻnikmalarni oʻz vaqtida tarkib topdirishda tengdoshlaridan ortda qoladi. Natijada bola oʻz badanini yaʼni qoʻl-oyoqlarini mehnatga moslashtira olmaydi va uni keyinchalik toʻgʻrilash qiyin kechadi. Shuning uchun ota-onalar oʻz bolasini bolaligidanoq mehnatga ongli ravishda koʻniktirib, odatlantirib va tayyorlab borishlari shart. Shundan keyingina bola mehnat tarbiyasi meʼyorida shakllanadi va mehnatga oʻz vaqtida odatlanadi.

Bu borada mashhur sharq allomasi Abu Nosir Forobiyning “Har bir kishiga berkitilgan maʼlum bir ish boʻlishi kerak, toki u kishi oʻziga berkitilgan ishni kechiktirmasdan oʻz vaqtida bajarsin”¹, -deb bildirgan fikri bola mehnat tarbiyasida ijtimoiy ahamiyatga ega.

Ota-onalar bolaga mehnat tarbiyasi berishda va mehnatga tayyorlashda oʻz bolasiga oilada bajaradigan mehnat topshiriqlarini maʼlum muddatda almashtirib borishi ijobiy natijaga olib keladi. Bu usul oilada bola mehnatining koʻp qirrali boʻlishini taʼminlaydi va uni har tomnlama mehnatda chiniqtiradi va uquvli boʻlishga odatlantiradi.

Oilada bola mehnat taʼlim-tarbiyasi quyidagi tuzilish va mazmunda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq.

Oilada mehnat tarbiyasida ota-ona tomonidan topshiriladigan mehnat topshiriqlari, ishlari bolaning aqliy, jismoniy rivojlanishiga, kuchiga, yoshiga va mehnat tayyorgarligiga mos boʻlishi darkor. Mehnat tarbiyasidagi bu pedagogik talablarni amalga oshirishda ota-

¹ Абу Наср Форобий. Рисолалар. Тошкент, 1975 йил, 17-бет.

onalar o'ta ziyrak va tadbirli bo'lishlari kerak. Aksincha oilada bola mehnat tarbiyasida qo'pol nuqsonlar kelib chiqadi. Misol uchun bolani mehnatga uzoq vaqt jalb qilish, mehnatdan toliqishga, zo'riqishga, bezdirishga va nihoyat mehnat qilish hohishini so'ndirishga olib keladi yoki ota-onaning bolaga mehnat tarbiyasi berishdagi mas'uliyatsizligi, loqaydligi oila tarbiyasida ko'plab boshqa muammolarni: mehnat qilmay yaxshi yashash, o'zgalarning mehnatini qadrlamaslik, mehnatda mas'uliyatsizlik, ishsizlik va nihoyat qashshoqlikka olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, oilada bolani mehnatga ko'niktirish, odatlantirish, tayyorlash, bolani komil inson qilib shakllantirishning, oila a'zolarini to'q va faravon yashashini ta'minlashning, oilani mustahkamlashning shuningdek, mamlakatni iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotining zaruriy sharti bo'lmog'i darkor.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Oilada mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari nima?
2. Mehnat tarbiyasi haqida mashhur pedagoglar qanday fikr bildirgan?
3. Oilada bolani mehnatga o'rgatishning qanday shakl, metod va vositalari mavjud?
4. Inson kamolotida mehnatning o'rni va roli qanday?
5. Nima uchun bolada mehnat ko'nikma va odatlari tarkib topdiriladi?
6. Bolaga mehnat tarbiyasida ota-onalarning asosiy vazifalari nimadan iborat?

Bolani estetik tarbiyalash

Oilada estetik tarbiya inson tarbiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Barkamol inson tarbiyasini estetik tarbiyasiz olib borib bo'lmaydi. Estetika so'zi yunoncha "Estezikos"dan olingan bo'lib "sezish", "his qilish" qobiliyati ma'nosini anglatadi. Estetika termini birinchi bo'lib adabiyotchi nemis olimi A.G.Baumgarten (1714-1962) tomonidan kiritilgan. Uni estetika fanining asoschisi deb bo'lmaydi, chunki estetika nazariyasi qadim zamonlardan falsafa fani doirasida o'rganilgan. Bizda esa estetika so'zning o'rniga nafosat, go'zallik, did, chiroy(li) singari iboralar bilan foydalanilgan.

Nafosat go'zallikni his qilish, idrok qilish hamdir. «Go'zallik – qadim turkiy so'z bo'lib, «go'z» (ko'z) va «ol» dan tuzilgandir, ya'ni ko'zi maftun etuvchi ma'nosini bildiradi. Tilimizda yana shu ma'noga yaqin chiroyli so'zi ham bor. CHiroyli narsani ko'z bilan ko'riladi.

Go‘zallik esa ham ko‘z bilan ko‘riladi, ham dil bilan his etiladi, ong bilan idrok qilinadi. Bola o‘z hissiyot va fikrlarini mustaqil ijod etish – rasm solish, ashula aytish, raqs tushishga imkon berish kerak»¹.

Prezidentimiz «Toki yurtimiz go‘zal, fayzli, erkin va adolatli yurt bo‘lsin. Toki bizdan elga foydali yodgorliklar qolsin, bog‘-rog‘lar qolsin, qalbni poklaydigan ibratli so‘zlar qolsin. Toki, bizdan olis ajdodlarga ozod va obod Vatan qolsin». Haqiqatdan ham ana shu fikrlarning zahirida yosh avlodni go‘zallik ruhida tarbiyalash maqsadi nazarda tutilgan. Kelajak avlodning bunday Vatanga bo‘lgan estetik tuyg‘usini tarbiyalash eng muhim pedagogik vazifadir.

Prezidentimiz I.A.Karimov «Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘li» asarida: «O‘z ishini aql bilan, tushunib bajaradigan kishida mehnatdan faxrlanish, hayotdan zavqlanish tuyg‘usi kuchli bo‘ladi. Ana shunday odamlarni tarbiyalashimiz, mamlakatimizning har bir fuqarosi ana shunday tuyg‘u bilan yashashiga erishishimiz kerak», - deb istiqbolli reja qo‘ygan edi. Ana shu maqsadga erishishning to‘g‘ri yo‘li bolalarni o‘z mehnatlaridan faxrlanish, hayotning barcha jabhalaridan zavqlanish tuyg‘usini tarbiyalashni yoshlik chog‘laridanoq o‘rgatishimiz, odatlantirishimiz darkor bo‘ladi.

Yoshlarni ayniqsa bolalarni estetik, axloqiy tarbiyalashda oshkoralikni pesh qilib bo‘lmag‘ur materiallarni aks ettirish sodir bo‘layotganligi haqida Islom Karimovning bildirgan fikri nihoyatda to‘g‘ri. «San‘atda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarda, matbuot vositalarida bo‘lmag‘ur lavhalarni aks ettirish, be‘maniylik va hayosizlikni, ba‘zan esa hatto axloqiy buzuvchilikni targ‘ib qilishlar ko‘rinib qoladi», -deb bildirgan fikridan yuqorida ta‘kidlangan joylarda mehnat qilayotgan malakali mutaxassislar tegishli xulosa chiqarsalar bolalar tarbiyasidagi nuqsonlar bartaraf bo‘lgan bo‘lar edi. Bizningcha, ularning o‘zlari o‘zbek xalq tarixi, madaniyati qolaversa, xalq tarbiyashunosligi masalalarini asosli o‘rgansalar to‘g‘ri bo‘lardi.

Insonning estetik ongini, madaniyatni, didini, muomala, munosabatlarini, xulq-atvorini umuman butun hayotini go‘zallik haqidagi bilimlarsiz, ko‘nikma va odatlarsiz tasavvur etish qiyin. Albatta bunday go‘zallik sifatleri bevosita oila tarbiyasi ta‘sirida ham amalga oshiriladi. Bu vazifani amalga oshirish uchun avvalo oilada mutaxassislar, ota-onalar estetik tarbiyaning mohiyati, mazmunini, shakllarini, metodlarini, maqsad va vazifalarini ilmiy jihatdan bilishlari hamda ularni oila sharoitida qo‘llay olishlari kerak. Buning

¹ A.Иброҳимов. Ватан туйғуси. 1996 йил, 123-бет.

uchun avvalo bakalavr mutaxassislar, ota-onalar insonni estetik tarbiyalash haqida sharq-g'arb mutafakkirlari, mashhur pedagoglarning ta'limotlarini va ko'plab pedagogik manbalarda ilgari surilgan pedagogik g'oyalardan xabardor bo'lishi hamda oila shart-sharoitini hisobga olib qo'llash maqsadga muvofiq.

Mashhur sharq allomasi Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy "Nozik iboralar" asarida inson go'zalligi haqida ilgari surgan fikrlari bag'oyat qimmatli. "Hech kimsaning go'zal hay'at suvrati (yuz-ko'ziyu, tashqi qiyofasi) unga izzat-ikromu obro'-e'tibor olib kelmas, aksincha ko'p nochor, kamsuqum ko'rinishli-yu, eski kiyimdagi kimsalar o'z fazilatlarini bilan ulardan (ko'rkam ko'rinishlardan) ustun kelur"¹ va yana "Go'zal sifat va husni xulq siyratlari bezanmagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko'rkam qilolmas, gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan firog' bo'lmas"¹.

Haqiqatan ham insonning go'zal bo'lishida uning tashqi ko'rinishi obro'-e'tiborini oshirmaydi. Aksincha insonning go'zal sifatlari, xulq-atvori, muomalasi, ishi, turmush tarzi go'zallik bilan amalda ta'minlansagina haqiqiy komil bo'la oladi.

«San'at ilmiy – degan edi «Sharq Aristoteli» deb nom bilan mashhur bo'lgan buyuk olim Abu Nasr Forobiy,-o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka etmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqning muvozanatini saqlab turadi. Ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir. Chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'nadi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordmida tana sog'aytiriladi»².

Komil insonni tarbiyalashda ichki va tashqi go'zallikning bir bo'lishi amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu haqda sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniy «O'tgan avlodlar obidalari» asarida: «Insonning ichki va tashqi go'zalligi bir bo'lgandagina u ideal kamolotga erishadi: «ozodalik va orastalik oliyjanoblikning o'zagidir», -deb ta'riflagan. Haqiqatdan ham insonning komilligi uning ichki va tashqi go'zallikning uyg'unligi bilan ta'minlanadi. Bu g'oyani bolalar faoliyatiga yoshligidanoq singdirish ularni komillikka tayyorlashning asosi hisoblanadi.

¹ Az-Zamaxshariy Nozik iboralar. Toshkent, "Kamalak", 1992 yil, 72 va 74-75 betlar.

² Хайруллаев М.М.. Форобий ва унинг фаслафий рисолалари. Тошкент, 1963, 235-бет.

«Agar inson chiroylini aql va farosat bilan ko'ra olsa va uni sevsa, bu insoniylikning yuqori darajasidir. Bu insonning buyuk ideali hisoblanadi. Ana shunday odamni mard va dono, estetik didi yuksak deb haqli ravishda aytish mumkin», degan Ibn Sino «Risolai ishq» asarida.

Ibn Sino yoqimli va yoqimsiz ovozlarning inson hayoti uchun qanchalik zarurligiga, insondagi til, nutq masalalariga ham to'xtaladi: Allohning insonga in'om etgan baxtlaridan yana biri inson nutqidir. Inson o'zining ana shu nuqtadagi tovush ohanglari orqali o'z hissiyotlarini izhor etadi» deb ta'kidlaydi. So'ngra Ibn Sino ovozlari o'zgarishi orqali uning mazmuni ham o'zgarishiga e'tibor beradi: Masalan, kishilar yalanganda boshqa ovoz chiqarib gapiradilar, do'q-po'pisa qilganda boshqacha, shoshib gapirganda nutq boshqacha ohangda bo'ladi» deb uqtiradi.

Ibn Sino fikricha, inson qalbi o'z tabiati bilan bir-biriga monand bo'lgan tovush va ritmlarni yoqtiradi. Chunki, tovush inson va hayvonlar hayotida eng zarur narsalardan biri, tovush insonning ham, hayvonni ham hayajonlantiradi, biror qo'rqinchli hodisa ro'y berganda bir-birini chaqirish borasida katta rol o'ynaydi. Uning fikricha: «Inson qalbi har bir yangi va ko'ngildagidek nag'madan orom oladi. Keyinchalik xudi shu yoqimli nag'ma g'oyib bo'lsa, qalb hayajonga tushadi. Xudi shu oldingi nag'maga o'xshash ikkinchi nag'maning paydo bo'lishi bilan qalbidagi hayajon yo'qola boshlaydi».

Insonning go'zalligi xususida mashhur tatar olimi Faxr-ul Banot Subg'atulloh qizi "Odam suvrati go'zalligi bilan emas, xulqi yaxshiligi bilan go'zal bo'la olur"¹ va yana "Go'zallarning eng go'zali sodda, tabiiy go'zallikdir"¹ -deb bildirgan fikri insonning tashqi qiyofasi emas, balki uning xulq-atvori go'zal bo'lishligini alohida ta'kidlagan. Ya'ni odamning aft-basharasi, qiyofasi turlicha bo'lishi mumkin, uning xulqi, xatti-harakatlari go'zal bo'lishi kerak.

Charls Darvin san'atning zaruriyati hamda uning kishi ongi va axloqiga ko'rsatadigan ta'siri haqida juda yaxshi fikrni bildirgan: «Agar menga qaytadan umr ko'rish nasib bo'lganda edi, men har kuni oz-ozdan she'riy asarlar o'qib berishni va ozroq muzika tinglashni o'zimga qonun qilib qo'ygan bo'lur edim. Bu didlardan mahrum bo'lish, baxtdan mahrum bo'lish demakdir, xatto u aqlga va ayniqsa,

¹ Фахр-ул Банот Субғатуллоҳ қизи. Оила сабоқлари. Тошкент, "Ёзувчи", 1992 йил, 14-бет.

kishi harakterining axloqiy tomoniga yomon ta'sir ko'rsatadi, chunki u fe'l-atvorimizning emotsional tomonini bo'shashtiradi».

Haqiqatdan ham insonning komil inson darajasida shakllanishida badiiy adabiyot, musiqa asosiy ta'sir ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi. Bolalarda she'r va musiqa tanglash ko'nikmalarini tarkib toptirish eng asosiy vazifa bo'lmog'i lozim. Hozirgi paytda milliy musiqaning insonlar ta'siini ko'proq kichik yoshdagi bolalikdan boshlash katta samara beradi deb o'ylaymiz.

Mashhur rus yozuvchisi A. P. Chexov insonning har tomonlama go'zal bo'lishi haqidagi quyidagi: «Insonda hamma narsa: chehra ham, kiyim ham, qalb ham, tafakkur ham... go'zal bo'lishi kerak. Ba'zan men shu qadar yaxshi kiyingan go'zal chehralarni uchratamanki, hayratdan gangib qolaman, lekin ularning qalbi va tafakkuri-chi, yo rabbi! Ba'zan ana shunday go'zallik bilan qora ko'ngil niqoblangan bo'ladiki, bu ko'ngilni mutloqo oqartirib bo'lmaydi», va yana “mehnatsiz go'zallik yaratilmaydi” -deb bildirgan fikri qimmatlidir. Mazkur pedagogik g'oyadan hozirgi bolalarni tarbiyalashda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Suxomlinskiy V.A. ta'kidlaganidek, “Bolalar go'zallik, o'yin, ertak, musiqa, rasm, xayol, ijodiyot olamida yashashlari kerak”¹, va yana “Bolalik va o'smirlik yillarida inson o'zida insoniy go'zalliklarni ko'rishi, his etishi, anglashi, go'zallikdan o'zidagi insoniylikdan zavqlanish tuyg'usini boshdan kechirishi juda muhim. Go'zallikdan - insoniylikka - tarbiya qonuniyati ana shunday”¹, -deb bildirgan fikrlarini oilada amalga oshirish juda ham foydali.

Haqiqatan ham oilada bolaning go'zallik bilan bog'liq bilimlari, ko'nikmalari aynan bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrlarida asosan tarbiyalanadi, shakllanadi. Shuning uchun ham ota-onalar bu davrlarda bolaning estetik tarbiyalanishiga e'tiborli bo'lishlari darkor. Ba'zan katta yoshdagi insonlar xulq-atvorida estetik ko'nikmalar ya'ni didida nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi fikrlar oilada bola estetik tarbiyasini yaxshilashga va takomillashtirishga qaratilgan. Ota-onalar ulardan kerakli xulosa chiqarishlari zarur.

Oilada estetik tarbiyaning maqsadi bakalavrlar, ota-onalarga ayniqsa tarbiyalanayotgan bolaga inson hayoti go'zallik qoidalarsiz, talablarsiz mukammal bo'lmasligi haqidagi bilimlarni tushuntirish, anglatishdir

¹ Сухомлинский В.А. Тарбия тўғрисида. Тошкент, “Ёш гвардия”, 1977 йил, 106-бет.

Oilada estetik tarbiyaning vazifasi esa bolada o'z hayoti uchun kerak bo'ladigan go'zallik bilimlariga asoslanib, turmushda qo'llash bilan bog'liq ko'nikma va odatlarni tarkib topdirish orqali komil insonni shakllantirishga zamin yaratishdan iborat.

Bolani go'zallikni sevish, uni to'g'ri idrok qilish, anglashga o'rgatish shaxsiy va ijtimoiy hayotda qo'llashga odatlantirish oilada estetik tarbiyaning bosh vazifasidir. Bu mas'uliyat ota-onalarga yuklatiladi. Insonni oilada yetuk qilib tarbiyalash uchun avvalo unga bola hayoti bilan bog'liq bo'lgan go'zallikni uning ongida, fikrlashida nazariy jihatdan shakllantirish kerak. Inson ijtimoiy hayotda barcha go'zalliklarni qancha ko'p tushunsa, anglasa, u shuncha darajada go'zallikka intiladi va o'zining hayotini go'zallik asosida quradi. Bunday inson o'zida tarkib topdiradigan ko'nikmalarni, odatlarni go'zallik qoidalari, qonuniyatlari asosida yuksak estetik didni shakllantiradi. U boshqa estetik jihatdan mukammal bo'lmagan insonlardan tubdan farq qiladi. Ba'zan estetik jihatdan shakllanmagan insonlar shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini tozalik, poklik, chiroylilik umumiy talablariga amal qilishmaydi. Natijada kiyinish, xulq-atvor, muomala va munosabatlarda go'zallikka zid bo'lgan ko'nikma, odatlarni o'zlashtiradi. Buning asosiy sababi oilada ota-onalarning o'z bolalarini estetik jihatdan o'z vaqtida to'g'ri tarbiyalanmaganligida deb izohlash mumkin. Oqibatda ba'zi oilalarda bola hayotida go'zallik tarbiyasida ko'zga tashlanarli nuqsonlar paydo bo'ladi. Bu esa insonni estetik didsiz, farosatsiz bo'lishga olib keladi. Shuning uchun hozir oilada bolalarning estetik tarbiyasini to'g'ri tashkil qilish va takomillashtirish hayotning eng asosiy pedagogik talablaridan va vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ayniqsa kiyinish, musiqa tinglash, muomala qilish, mehnat, turmush tarzi va milliy xulq-atvor ko'nikma, odatlarini tarbiyalashga erishish oilada bola estetik tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Bakalavr mutaxassislar, ota-onalarning o'zlari tabiiy go'zallik bilan sohta go'zallikning farqiga borishi hamda ularga o'z munosabatlarini bildirish lozim. Shuningdek, ularning bolalar tarbiyasida estetik namunasi, tajribasi va mahorati yuqori bo'lmog'i darkor.

Oilada bolaga kiyinish estetikasini targ'ibot qilish va uni amalga oshirish ota-onalar oldidagi eng asosiy vazifa sanaladi. Albatta buning uchun ota-onalarning pedagogik madaniyatini va talabchanligini ta'minlash juda muhim.

Ovro'pacha kiyinishning ommalashib ketishi hozirgi vaqtda oddiy hol bo'lib qolmoqda. Masalan, ba'zi qizlarning behayolarcha badanini ko'z-ko'z qiladigan tanasiga yopishgan yubka, kofta, shim kiyinishlari, yigitlarning ko'ylaklarini shimdan chiqarib, tugmalarini yechib yurishlari, millatga xos bo'lmagan kiyinish kabi xulq-atvoridagi milliy estetikaga mos bo'lmagan ko'nikma, odatlarning tarkib topishi go'zallik qoidalarini bilmaslikning oqibatidir. Muhimi oilada ota-onalar o'z farzandlarining milliy go'zal kiyinishlariga erishishlari juda muhim. Aks holda uni betaraf qilish ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Kiyinishda har bir o'g'il, qizlar jinsiga, yoshiga, fasllarga mos kiyimlar kiyishi go'zallik tarbiyasida amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun ota-onalar o'z bolalarida haqiqiy go'zallik bilan sohta go'zallikning farqiga borishga bolaligidanoq o'rgatishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, bolaning ohangni tinglash, uni qalbdan his qilish, o'tkazish yoki ashulaning ma'nosini tushunish va anglashi bilan bog'liq ko'nikmalarni tarkib topdirish musiqa va ashulaga bo'lgan ongli munosabatini tarbiyalaydi hamda unda milliy go'zallik madaniyatini shakllantirishga zamin yaratadi. Ammo ba'zi ota-onalarning bu borada loqaydligini hyech narsa bilan oqlash mumkin emas.

Ota-onalar bolalarni go'zallik asosida tarbiyalashda turli manbalaridan: musiqa, adabiyot, kino, teatr, video lavhalar, oynai jahon, radio, muzey, tarixiy yodgorlik, haykaltaroshlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik kabi estetik vositalardan maqsadli foydalanishi uning samaradorligini ta'minlaydi. Oilada bolalarda dastlabki estetik tasavvurlarini tarkib topdirishda bolalarning ota-onalar hamda o'qituvchilar bilan tarixiy madaniy yodgorliklarga, san'at ko'rgazmalariga, yozuvchilarning uylariga, muzeylarga, tabiat bag'riga va kino-teatrlarga birgalikda bori va sayohat qilishlari bevosita kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ota-onalar bilan qavmu-qarindoshlarga mehmonga borishi, bolalar bilan oynai jahon ko'rsatuvlarini birga tomosha qilishi ularning fikr-mulohazalari, ma'lumotlari va xulosalarining to'g'ri shakllanishiga yordam beradi.

Ota-onalar oilada bolani estetik tarbiyalash metodikasini bilishlari kerak. Buning uchun avvalo oilada estetik tarbiyalashning shakllari, metodlari va vositalarini bilishlari kerak. Bizningcha ota-onalar oilada asosan bolaning estetik tarbiyasi yuzasidan quyidagi tuzilish va yo'nalishda tarbiyaviy faoliyatlarini tashkil qilishi maqsadga muvofiq.

Bular: estetik his-tuyg‘u, estetik idrok, estetik tasavvur, estetik tushuncha, bilim, ma’lumot, ko‘nikma, malaka, odat, ong, fikr, madaniyat va hokazolarni bosqichma-bosqich amalga oshirsalar bola estetik tarbiyasi to‘g‘ri shakllanadi. Albatta estetik tarbiyaning mazkur tuzilishi bola rivojlanishining turli davrlarida o‘ziga xos tarzda kechadi.

Shunday qilib, oilada bolalarni estetik tarbiyalash barkamol inson tarbiyasining tarkibi va poydevori bo‘lmog‘i lozim. Hamda O‘zbekistonni ma’naviy, madaniy va ijtimoiy rivojlantirishning zaruriy sharti bo‘lmog‘i kerak.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Nega oilada estetik tarbiya tarbiyaning asosiy tarkibiy qismi ekanligini izohlang?
2. Oilada estetik tarbiyaning maqsad, vazifalari nimalardan iboratligini izohlang?
3. Oilada estetik tarbiyaning qanday shakllari, metodlari va vositalari mavjud?
4. Nima uchun bolada estetik ko‘nikma va odatlar shakllantiriladi?
5. Bolani estetik tarbiyalashda ota-onalarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Bolaning jismoniy tarbiyasi

Inson hayotda o‘z maqsadiga yetishi uchun u avvalo jismoniy jihatdan sog‘lom bo‘lishi shart. Muhimi insonning munosib hayot kechirishi, o‘qishi, mehnat qilishi va uzoq umr ko‘rishi uning sog‘ligi bilan uzviy bog‘liq. Xalqimiz “Sog‘ tanda-sog‘lom aql”, “Toza havo, tanga davo” deb bejiz ta’kidlanmagan. Qolaversa, oilaning va jamiyatning mustahkam bo‘lishi hamda rivojlanishi insonlarning sog‘lig‘i bilan amalga oshiriladi. Shunday ekan, oilada bolalarning jismoniy sog‘lig‘ini tashkil qilish va ta’minlashga g‘amxo‘rlik qilish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Jismoniy sog‘lom inson o‘z hayotini to‘la-to‘kis ta’minlaydi, boshqalar uchun, jamiyat uchun moddiy ne’matlarni bunyod etadi. Shuningdek, mamlakatning iqtisodiy, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksida ota-onalarning farzandlar jismoniy tarbiyasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi belgilab qo‘yilgan. Demak, oilada farzandlarni jismoniy jihatdan rivojlanishini ta’minlash, tana a’zolarini chiniqtirish, chaqqon, epchil harakat

qilishini va ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini qo‘lga kiritishda umuman, bolani oila, ijtimoiy hayotga tayyorlashda jismoniy tarbiya asosiy o‘rinni egallaydi hamda ota-onalarga katta ijtimoiy mas’uliyat yuklaydi. Bu xususta O‘zbekiston Respublikasi kadrlash tayyorlash Milliy dasturida: “ta’lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma’naviy-ahloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish” zarurligi ta’kidlangan.

Shu nuqtai nazardan yondoshganda insonning mavjud imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini ishga solish, dolzarb pedagogik muammo bo‘lib qolmoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun pedagoglar, ota-onalar oilada jismoniy tarbiyaning maqsad, vazifalarini ilmiy jihatdan bilishlari kerak.

Oilada bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi bakalavrlarga, ota-onalarga ayniqsa bolalarga jismoniy tarbiyaning inson hayotida tutgan o‘rni, tana sog‘ligini ta’minlash orqali chiniqtirish, chaqqon, epchil, harakatchan bo‘lishligini tushuntirish, anglatishdir.

Oilada jismoniy tarbiyaning vazifasi esa jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni shaxsiy turmushda ya’ni o‘yinda, o‘qishda, mehnatda, vatan mudofaasida qo‘llash bilan bog‘liq jismoniy ko‘nikma, odatlarni tarkib toptirish orqali yetuk insonni shakllantirishga tayyorlashdan iborat.

Mazkur maqsad, vazifani oilada amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratish ota-onalarning muhim vazifasi bo‘lib qoldi. Ya’ni bolani jismoniy tarbiyalashga qo‘yiladigan pedagogik talablarni bilishi va bolani jismoniy tarbiyalash uchun sharoitni yaratishni tushunishlari kerak.

Bolani jismoniy tarbiyalash shartini bilish uchun sharq-g‘arb mutafakkirlari va mashhur pedagoglarining fikrlarni o‘rganish maqsadga muvofiq. Xususan Abu Ali ibn Sinoning “Badan tarbiya - sog‘liqni saqlashda ulug‘vor usul”; Ibn Rabboi at-Taboriy “Har istakning tub maqsadi - sog‘liqdir”; P.S. Lesgaft “Rivojlanish, jismoniy rivojlanish singari garmonik bo‘lishi, aqliy, estetik va ahloqiy tarbiya ham shunga muvofiq bo‘lishi kerak, aks holda matonatli va sobit qadam kishilarni yetkazib bo‘lmaydi” kabi fikrlar oilada bolani jismoniy tarbiyalashga asos bo‘ladi.

Atoqli pedagog Abdulla Avloniyning “Bolaning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qimoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdur”¹, -deb bildirgan fikri qimmatli va hayotidir. Haqiqatan ham bolaning o‘qib o‘rganishi, mehnat qilishi va hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun birinchi o‘rinda jismoniy jihatdan sog‘lom bo‘lishi zarur.

Mashhur tatar olimi Faxr-ul Banot Subg‘atulloh qizining oilada bolani jismoniy tarbiyalash haqida: “Tanda salomatlik bo‘lmasa, ibodat qilmoq va xizmat, mumkin bo‘lmagani kabi, sihati buzilgan bir odamning joni va butun ma’naviyati mushkul azob ichidadir. Shunday bo‘lganda ma’naviy tarbiya toza, tubli bir moddiy tarbiyadan so‘ng vujudga kelajagidan avval bolaning tanini, ikkinchi jonini tarbiya qilmoq lozim bo‘ladir. Ya’ni avval tan tarbiyasini tamom qilib, bu toza negiz ustiga insoniyatning mustahkam binosi bo‘lgan ma’naviy tarbiyani qurmoq kerak”². Yana “Bolalarga ustma-ust kiyimlar ham kiydirmak ham zararlidir. Bolani sovuqqa, issiqqa, har bir mehnatu mashaqqatlarga oldindan yaxshigina ko‘nikturmak lozimdir. Bo‘g‘imlarning harakatini yengillatmak va tananing quvvatini ortdirmak uchun yugirmak, sakramak va o‘ynamak kabi harakatlar qilib, bunday foydali harakatlardan tarbiya doirasida foydalanuvlariga tirishmak kerak.

Tek o‘tiruvga o‘rgangan bolalar ish yoqmasu yalqov bo‘lib o‘sadilar. Tanning yaxshi toza bo‘lib o‘suvi uchun tor kiyimlardan, qisib bog‘lashlardan saqlanmak lozimdir. Bolalarning tan tarbiyalari to‘g‘risida eng ko‘p narsa sof havo, yaxshi suv, vaqtida-yu o‘rtacha yeyish, hifz-i sihatga muvofiq o‘yin, keng kiyim ila har ishni tartibi ila vaqtida qilurga so‘nggi darajada tirishmakdirki, millatu mamlakatimizga yaxshi va go‘zal xizmatlar qila olurlik va o‘zlari ham baxtli bo‘la olurlik suvratda, quvvatli, gavdali bolalar maydonga chiqa olsun”¹ degan fikrlari juda ham qimmatli va hayotiydir.

Chindan ham bolaning har tomonlama komil bo‘lib tarbiyalanishida avvalo bola tanasining sog‘lom bo‘lishi juda muhim. Tanani jismoniy sog‘lom rivojlantirish, insonni shakllantirishning, uning tabiiy imkoniyatlarini oshirishning, oilani mustahkamlash va jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining asosiy talabi hisoblanadi. Oilada bolalarni jismoniy tarbiyalashda maktab o‘qituvchilar maslahatlariga

¹ Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992 йил, 14-бет.

² Фахр-ул Банот Субғатиллоҳ қизи. Оила сабоқлари. Тошкент, “Ёзувчи”, 1992 йил, 81-83-бетлар

tayanib farzandlar hayotini rejim asosida ertalabki gimnastika mashqlarini, sport o'yinlarini, mehnatni to'g'ri tashkil qilish va shaxsiy gigiyena qoidalarining bajarilishiga ota-onalar qulay sharoitlar yaratib berishlari lozim. Hamda oilada farzandlarda o'z sog'ligini saqlashga g'amxo'rlik qilish bilan bog'liq amaliy ko'nikma, odatlarni shakllantirishga erishishlari kerak.

Bola sog'ligi xususida o'qituvchilar, ota-onalar mashhur turk olimasi Aliy Nazimoning maslahatiga amal qilishlari maqsadga muvofiq bo'ladi: "Bolalarning quvvatlarini orttirish uchun eng kerakli qurol harakatdir. Bolalar o'ynagan vaqtida etlari silkinur, o'pkalari kengayur, ovqat yegulari kelur, ovqatlari osonlik bilan singar. Yuruv, yuguruv, piyoda uzoq yuruv, arg'imchoq uchuv, kurashuv, to'p o'ynash kabi narsalar ko'proq uyda o'tirib, tashqariga siyrak chiqqan kishilarga sihatni saqlash uchun tavsiya qilingan foydali tan harakatlaridan sanalur. Bola o'ynab, yugurib darsu mutolaa orasidagi dam oluvdan lazzatlanur"¹. Chunki jismoniy mashqlar ya'ni harakatlar va jismoniy mehnat bolalarni rivojlantirishda hal qiluvchi tarbiyalovchi vosita hisoblanadi. Oilada bolani jismoniy tarbiyalashni ota-onalar quyidagi tuzilish va mazmunda tashkil etsalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oilada bolalarni jismoniy chiniqtirishda sport o'yinlarining o'rni katta. Shuning uchun oilada va oilalararo mahallada turli sport o'yinlarini tashkil qilishda ota-onalarning, katta yoshdagilarning kuzatuvchi bo'lib yoki faol ishtirok etishi bolalarning jismoniy chiniqtirishlarida amaliy ahamiyat kasb etadi.

"Sport - mening hayotim", "Jismoniy chiniqtirish - o'qish, mehnat va Vatanni mudofaa qilishga o'rgatishning asosiy sharti", "Sog'lom tunda -sog'lom aql", "Jismoniy sog'liq - insonning o'qish, mehnat faoliyatida asosiy vosita" kabi mavzularda o'qituvchi va tajribali ota-onalarning, shifokorlarning suhbatlarini, tushuntirishlarni tashkil qilish oilada bolalarni jismoniy chiniqtirishlari hamda rivojlanishlariga bevosita yordam beradi. Yana oilada bolalarni jismoniy tarbiyalashda ota-onalarning pedagogik madaniyatini takomillashtirish, amaliy tayyorgarligi bo'yicha tajribalarni o'rtoqlashish, shu yo'nalishda pedagogik jurnal va maxsus adabiyotlar nashr qilishni yo'lga qo'yish davr talabi bo'lib qoladi.

Oilada bolalarni jismoniy tarbiyalashda havo, suv, quyosh kabi tabiiy manbalardan foydalanish uning samaradorligini oshiradi.

¹ Aliy Nazimo Qizlar tarbiyasi. Toshkent, "Kamalak", 1994 yil 53-bet.

Shunday qilib, oilada bolalarni jismoniy tarbiyalash, o'yinga, o'qishga, mehnatga, oila va ijtimoiy turmushga tayyorlashning zaruriy talabi hamda sharti bo'lmog'i lozim. Bularsiz jismonan sog'lom komil insonlarni oilada shakllantirish mushkul.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Jismoniy tarbiya bola kamolotida qanday o'rin tutadi va u haqda mashhur pedagoglar qanday fikrlar bildirishgan?
2. Oilada bolani jismoniy tarbiyalashning maqsad, vazifalarini nima uchun pedagogika va psixologiya bakalavr mutaxassislar va ota-onalar bilishlari kerak?
3. Oilada bolani jismoniy tarbiyalashning qaysi shakl, metodlari, vositalari mavjud?
4. Bolada jismoniy ko'nikma va odatlar nima uchun tarkib topdiriladi?
5. Bolani jismoniy tarbiyalashda ota - onalarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Bolani iqtisodiy tarbiyalash

Oilada iqtisodiy tarbiya tarbiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Iqtisodiy tarbiyasiz inson hayotini, oila va ijtimoiy hayotni tasavvur qilish qiyin. Insonning, oila va ijtimoiy hayotni davom ettirish uchun oilada bolani iqtisodiy jihatdan tarbiyalash zarur. Iqtisodiy tarbiya hozir inson hayotini to'laqonli tashkil qilishning obyektiv zaruriy ehtiyoji, talabi bo'lib qoldi. Shuning uchun ham iqtisodiy tarbiyani bola tarbiyasining tarkibiga singdirmasdan komil insonni shakllantirish mushkul.

Tejamkor inson avval o'z mehnatini, o'zgalar mehnatini, butun mamlakat mehnat ahlining mehnatini qadrlaydi. Chunki inson uchun zarur bo'lgan barcha narsalar odamlarning amaliy ishlab chiqarish mehnati bilan bunyod qilinadi.

Oilada iqtisodiy tarbiya nafaqat komil insonni shakllantirishnigina emas, balki oila a'zolarini to'q, faravon hayot kechirishining, oilani barqarorlashtirishning, mustahkamlashning shuningdek, mamlakatning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashini ta'minlovchi omil hamdir. Shu nuqtai nazardan yondoshganda oilada bolani iqtisodiy tarbiyalash, oilani, jamiyatni, mamlakatni iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotining zaruriy shartidir.

Bunga muvofiq bo'lish uchun pedagogika va psixologiya mutaxassislari, oilada ota-onalar iqtisodiy tarbiyaning maqsad,

vazifasini ilmiy jihatdan tasavvur qilishlari va oila sharoitida ro'yobga chiqarishlari darkor. Bu mas'uliyatli ijtimoiy vazifani oilada amalga oshirish uchun ota-onalar sharq-g'arb mutafakkirlari, mashhur pedagoglarning qarashlari haqida ilmiy pedagogik ma'lumotga ega bo'lmog'i zarur.

Oilada iqtisod tarbiyasining maqsadi bakalavrlar, ota-onalarga ayniqsa bolaga iqtisod tarbiyasining inson hayotida tutgan o'rnini, rolini tushuntirish, anglatishdir.

Oilada iqtisodiy tarbiyaning vazifasi esa bolaga iqtisod bilimiga tayanib oila va ijtimoiy hayotda qo'llash bilan bog'liq iqtisodiy ko'nikma, odatlarni tarkib topdirish orqali komil insonni shakllantirishga zamin yaratishdan iborat. Oilada iqtisodiy tarbiyaning bosh maqsadi pedagog mutaxasislarni, ota-onalarni, bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning ijtimoiy ahamiyatini anglatish orqali ularning pedagogik madaniyatini oshirish va takomillashtirishga erishishdir.

Agar ota-onalar o'z bolasiga iqtisodiy tarbiyaning mohiyatini, mazmunini singdira olsa, unda iqtisodiy bilim, ko'nikma, odatlar o'z vaqtida tarkib topadi va u oila, ijtimoiy hayotga tayyor bo'ladi. Aksincha bola iqtisodni tushunmasa, hayotda qo'llamasa, oila tarbiyasida boshqa muammolar paydo bo'ladi.

Bola tarbiyasida muammo bo'lmasligi uchun Al-Xorazmiy ta'kidlaganidek kishi hisob ilmini bilishi va o'z ishiga pishiq bo'lishi kerak. Shunda u o'z mehnatining natijalarini o'lchovlar orqali aniqlay oladi.

Bolani iqtisodiy tarbiyalash haqida mashhur alloma Abu Nosir Forobiyning: "Inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'onchilik qilish, xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi"¹, -deb bildirgan fikri oilada bolani iqtisodiy tarbiyalashda asosiy o'rinda turmog'i lozim.

Al-Buxoriy Al-adab al-mufrat asarida esa: "...Har ishning bir sababi bordir. Ammo qashshoqlikning sababi isrofdir. Isrof faqat molni sarf qilishnigina emas, ovqatda, kishining qiziqishlari, nutqida ham isrof bo'ladi, isrof tanni aldaydi, nafsni ranjitadi, aqlni qochiradi va tirikni o'ldiradi"² va yana "Isrof -u qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishining bor yo'g'ini sovuradi yakson qiladi"² -degan fikrlari bilan insonni tejamkor bo'lishga va narsalarni isrof qilmaslikka da'vat qilgan. Isrof har bir insonni, har bir oilani, har bir davlatni avval

¹ Ал Фороби. Социально – этические тракты – Алма – Ата, 1973, стр.17-18.

² Ал-Бухорий. Ал –адаб ал – муфрат. Тошкент, "Ўзбекистон", 1990 йил, 131-бет

zaiflashtiradi, keyin esa ularning tanazzulini ta'minlaydi. Shuning uchun hozir oilada ota-onalar har bir bolani bolaligidanoq barcha moddiy ne'matlarni, narsalarni isrof qilmaslikka, tejashga o'rgatishlari zarur.

Mashhur pedagog Rizouddin ibn Faxriddin "Nasihati" nomli asarida oilada ota-onalarni tejamkor bo'lishga da'vat etgan. Xususan uning "Kirim chiqim hisoblaringizni bir daftarga yozing va har vaqt bu daftarga ko'z tashlab turingiz, bunday daftarlar iqtisod arshini va tadbir o'lchovi bo'lurlar. Chunki hissasidan chiqimi aqchalarini ko'rib turganida kerakmas o'rinlarga aqcha bermak uchun har kim bir qadar ehtiyot uzra bo'lur.

Chiqimlaringizni kirimingizdan ortiq aylamangiz, balki qora kun uchun har oyda ozmi-ko'pmi bir miqdor hissangizdan berkitib boringiz, bunday etmoq ko'ngilga rohatlik keltirur va ijdihodli bo'luvga sabab bo'lur, ammo chiqim ortiq bo'lsa, ko'ngilga hasrat solur, qonni buzar"¹ –deb bildirgan fikri oila hayotini boshqarishda juda muhim va qimmatlidir. Bu fikr o'zbek oilalaridagi ba'zi oila boshliqlariga hayotiy saboq bo'lishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar o'z mablag'ini to'g'ri, o'z o'rniga sarflay olishlari lozim. O'z moddiy imkoniyatiga qarab tejamkorlik asosida reja bilan ish yuritmagan oilalar ko'p qiyinchiliklarga duch kelishi aniq.

Bizningcha ota-onalar oilada bolani iqtisodiy tarbiyalashda iqtisodiy tasavvur, tushuncha, bilim, ma'lumot, iqtisodiy ong ya'ni fikrlashga va ularni amalda qo'llash bilan bog'liq iqtisodiy ko'nikma, malaka, odatlarni tarkib topdirishga erishmog'i darkor. Ota-onalar oilada bunga erishish uchun bolaga "iqtisod", "tejash", "kirim-chiqim", "daromad", "buramod", "sarf", "oilaga mablag'i", "oilaga xarji", "foйда", "zarar", "qashshoq", "to'q-faravon" kabi so'zlarning ma'nosini tushuntirib, anglatishdan boshlashi maqsadga muvofiq.

Iqtisod tushunchasiga Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida: "Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakka aytilur. Hozirgi zamonda maqsudga yetmak, o'z millatiga xizmat qilmak, xalqqa maqbul bo'lmak uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari bilan o'lchanadur. ...Bobolarimizning "Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar zamonlari o'tib, o'rniga "Bilgan bitar, bilmagan yitar" zamoni keldi. So'zning qisqasi hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas

¹ Фахриддин ибн Ризоуддин. Насихат. Тошкент, «Чўлпон», 1973, 70-бет.

sa'y, bitmas g'ayrat lozimdur"¹, -deb iqtisod tarbiyasining pedagogik asoslarini ko'rsatib, inson kamolotida va millatning rivojlanishida tutgan o'rniga to'g'ri baho bergan.

Ammo hozirgi davrda iqtisodiy tarbiya nafaqat pul yoki mol qadrinagina bilishni emas, balki olamdagi barcha moddiy ne'matlarni va ularni yetishtiradigan insonlarning mehnatini, hattoki vositalarning qadriga yetish zarurligini kundalik hayot isbotlab turibdi. Uning bu fikrlari zaminida hamma davr uchun amaliy ahamiyatli mazmun yotadi. Chunki iqtisod tarbiyasi barchaga, ota-onaga hamisha zarur va bolani tarbiyalashda qo'l keladi.

Oila jamg'armasini tejab-tergab sarflash xususida Kaykovus "Qobusnoma" asarida o'z farzandiga quyidagicha: "Ey farzand, o'zingni mol jam etmoqdan g'ofil tutmag'il va lekin har narsani etmoq tilasang jaxd qilg'il, toki halollik bila jam bo'lsun va hamisha senga boqiy hamda yoqimli bo'lsun. Agar moling ko'p bo'lsa, uni taqdir va tadbir bila ishga yaratg'il. Nedinkim, taqdir va tadbir bila yaratgan ozgina mol taqdirsiz va tadbirsiz ko'p moldin yaxshidur. Agar mol oz bo'lsa, ham yaxshi saqlamoqni vojib bilg'ilki, har kishi oz narsani saqlay olmasa, ko'p narsani ham saqlay olmag'uvsidir. Har narsa qo'lingga tushsa, bir tangadan ikki hissasini qarilig' va ojizlig' vaqtining zaruriy ishlariga ehtiyoj uchun ehtiyot qilib qo'yg'il, va undan ko'z yumib aslo unga qo'l urmag'il" va yana "Jam etgandan so'ng yaxshi saqlagil va har botil (buzuq) ish uchun uni qo'ldin bermag'il, nedinki, saqlamoq yig'ishdan mushkuldur. Agar kerak vaqtda zarur ish uchun olib xarj etsang, harakat qilib uni o'rnini to'ldirg'il. Agar xarj etib, yana joyini to'ldirmasang, agar qorinning ganjidek bo'lsa ham, u bir kunda yo'q bo'lur"², -deb maslahat bergan.

"Kirimiga qarab chiqimini tuta bilmagan kishi bor davlatini bitirib, oxiri xorlikka tushgani holda, kirimiga qarab chiqimini tuta bilgan kishi boy bo'lmasada, o'zini faqirlikdan saqlay oladi"³, -deb o'rinli ta'kidlangan yuz bir hadislarning birida. Demak, iqtisodning yaxshi va yomonligi tejamkorlik bilan bevosita ish yuritishga bog'liqdir. Bas, shunday ekan, bolaga oilada iqtisod, kirim-chiqim mohiyati haqida ta'lim-tarbiya berish shart. Yuqoridagi pedagogik manbalarning baryaasi oilada bolani iqtisodiy tarbiyalashga asos negiz

¹ Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, "Ўқитувчи", 1992 йил, 33-34-бетлар.

² Кайковус Қобуснома. Тошкент, «Истиклол», 1994, 70-бет.

³ Юз бир ҳадис. Тошкент, "Меҳнат", 1991 йил, 38-бет.

bo'la oladi hamda oila tarbiyasining asosini tashkil qiladi. Bu oilada ota-onalarga alohida ijtimoiy, oilaviy mas'uliyat yuklaydi.

Oila sharoitida ota - onalar bolani iqtisodga o'rgatishda oziq-ovqat, sabzavot, meva mahsulotlarini, ro'zg'or jihozlarini ehtiyotlash ayniqsa suv, elektr energiyasi va gazdan tejamli foydalanishga to'g'ri odatlantirib borishga erishishi oila tarbiyasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, ota yo ona yuqoridagilardan biri elektr energiyasidan oilada tejamli va o'z o'rnida foydalanishni quyidagi usulda suhbat asosida bolaga anglatish maqadga muvofiq. Elektr energiyasini ishlab chiqarishga katta miqdorda ko'mir, gaz va mazut zarurligini hamda ushbu mahsulotlar davlatning boyligi hamda uni ishlab chiqarishda muxandis, ishchi xodimlarning zahmatli mehnati evaziga paydo bo'layotganligini ta'kidlaydi. Elektr energiyasidan tejab maqsadli foydalanish hisobiga shu sohada mehnat qilayotganlarning mehnatini qadrlash bilan birga oila mablag'ini tejash har bir oila a'zoning, xususan bolaning burchi, vazifasiligini uqtiradi. Shundan keyin bola oilada foydalangan elektr energiyasini qoplash uchun pul to'lanishligini tushunib yetadi. Qancha ko'p elektr energiyasidan foydalansa, oila mablag'idan ko'p pul sarflab zarar ko'rishini va qancha kam kilovat foydalansa, foydaligini anglab yetadi. Bunday suhbat bolaning elektr energiyasiga nisbatan iqtisodiy munosabatini tarbiyalaydi. Ota-onalar bu tarzda suhbat mavzularini o'quv jihozlar, kiyim - kechak va boshqa kerakli ro'zg'or buyumlari bo'yicha ham tashkil qilishi juda katta foyda keltiradi va bolani iqtisodiy tarbiyalashga zamin yaratadi.

Oila, pul daromadlari halol, pok yo'l bilan mehnat evaziga topilmog'i zarur. O'g'rilik, qimor o'ynash, pora, aldamchilik, qalloblik bilan ortirilgan boylik haromdir. SHuning uchun oila iqtisodiga qo'shiladigan hissa halol bo'lmog'i lozim. Halol bilan haromni farqlay bilishni esa bola ongiga yoshlikdan singdirib borish lozim. Oqibatda oila iqtisodi haqida ilk sog'lom iqtisodiy tushuncha shakllanishi va uni kundalik turmushda qo'llash bilan bog'liq elementar ko'nikmalarni tarkib toptirib borish oilada va maktabda bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Oilada ota-onalarning axloq-odobga oid hadis namunalarini va xalq maqollarining iqtisodga oid tomonlarini mohiyatini tahlil qilib hayotiy misollar bilan bola ongiga singdirish uning iqtisodiy tarbiyasida hal qiluvchi o'rin egallaydi. Masalan "Nimaniki qilsang xor, shunga bo'lursan bir kun zor", "Yenglar, ichinglar, sadaqa

qilinglar, ammo isrofgarchilikka va faxrga o'tmanglar", "Kimki hayotda tejamkor bo'lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi", "Oila nafaqasidagi tejamkorlik tirikchilikning yarmisiga teng", "Tejagan-birga birni qo'shar, tejamagan-birni ham boy berar", "Tiyin tangani saqlaydi", "Tiyin qadrini bilmagan-so'm qadrini bilmaydi", "Pul topish uchun kuch-quvvat kerak, tejash uchun fahmu-farosat", "O'zingnikini bir tejasang, xalqnikini ming bor teja", "Oz ye, hamisha ye", "Daromadga qarab buromad" kabi xalq maqollarining mohiyati, mazmunini bolaga anglatish oilada ota-onalarning asosiy vazifasi bo'lmog'i zarur. Mazkur maqollar bolani iqtisodiy fikrlashga, tejamkor bo'lishga o'rgata boradi.

Umuman oilada ota-onalar yuqoridagi pedagogik manbalarga tayanib o'z bolasiga oila a'zolarining har oyda oladigan mablag'i, qo'shimcha daromadini va oilaning umumiy daromadini anglatib borsa, jami oila mablag'ining sarf qilinishini kirim-chiqim tarzda tahlil qilishni tashkil qilsa, u iqtisodiy jihatdan tarbiyalanib boradi. Ayniqsa oila daromadidagi yetishmovchiliklar bolani iqtisodiy jihatdan mustaqil fikrlashga o'rgata boradi. Bu kabi tadbirlar o'z navbatida amalda qo'llash bilan bog'liq iqtisodiy ko'nikma, malaka, odatni to'g'ri shakllantirishga o'rgatadi. U albatta asta-sekin o'zini, oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlashni o'rganib boradi.

Oilada ota-onalar bolani iqtisodiy tarbiyalashda: og'zaki, ko'rsatmali, amaliy ish shakllardan hamda uqtirish, tushuntirish, hikoya qilish, suhbat, bahs, namuna, mashq, rahbatlantirish, jazolash, o'z-o'zini tarbiyalash kabi tarbiya metodlaridan foydalanishlari maqsadga muvofiq. Shuningdek ommaviy axborot vositalari: radio eshittirish, oynai jahon ko'rsatuvlari, kompyuter, gazeta, jurnal materiallaridan ham foydalanishlari iqtisodiy tarbiyaning samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Va bolani oilasi, ota-onasi va jamiyat oldidagi iqtisodiy-ijtimoiy burchni anglashga va uni ongli bajarishga o'rgatadi. Asta-sekin bola pulni to'g'ri sarflashni, buyumlarni va barcha moddiy narsalarni qadrlashga o'rgana boradi. Muhimi bola oilasi va o'z mablag'ini o'z o'rnida, joyida xarj qilishga odatlanadi. Bunday iqtisodiy kerakli ko'nikmalrni o'zida shakllantirgan bola hayotda oila a'zolari mehnati va mablag'i qadriga yetadigan bo'lib tarbiyalanadi.

Ota-ona bolaga oylik maoshini rejali sarflash, keraksiz narsalarni xarid qilmasligi, molu-dunyo yig'ishga ruju qo'ymasligi, o'g'irlik, tamagirlik, yolg'on so'zdan yiroq bo'lishi, oziq-ovqat mahsulotlarini

isrofgarchilik bilan sarf qilmasligi, ichki va ustki kiyimlar, poyafzallarni o'z o'rnida ehtiyotkorlik bilan toza-ozoda saqlashi, ularni dazmollab kiyishi, pala-partish kiyinmaslik, xonadonni ortiqcha, kishi ruhiyatiga tegadigan anjomlarsiz bahavo, ihcham, did bilan bezangan, saranjom-sarishta tutishi, oilaning xo'jalik harajatlarini tejash maqsadida mavjud er maydonlaridan mevali daraxtlar, poliz mahsulotlari ekib, unumli foydalanish, ro'zg'or asbob-anjomlarini ta'mirlashni bilishi bilan o'z farzandlariga namuna bo'lishi zarur.

Bolani iqtisodga o'rgatishda ota-onaning bolani pul bilan mustaqil muomala qilish ko'nikmasini tarkib topdirishi juda muhim. Buning uchun otaning o'g'liga, onaning qiziga bozorda hard qilishga ko'niktirib o'rgatib borishi juda foydali. Bolani ko'niktirish, o'rgatish avval ota yoki ona boshchiligida savdo qilishni kuzatishga o'rgatish, so'ng esa unga o'zi, oilasi ehtiyoji uchun kerakli oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlarni hard qilishga ko'niktirib, odatlantirib borishi maqsadga muvofiq. Bozor hardidan keyin olib kelgan mahsulotlar sifatini sarf qilingan mablag'ning miqdori bilan qiyoslab ota-onaning tahlil qilish va baho berishi juda muhim. Tahlilda bolaning hard qilishdagi ilk yutug'ini to'g'ri ta'kidlab, ko'rsatib baho berish maqsadga muvofiq. Bozorga savdo qilish bir necha marta mashq qildiriladi. Keyin ota yo ona bola yo'l qo'ygan nuqsonlarni bartaraf qilish to'g'risida amaliy maslahat berishi unga iqtisodiy ma'lumotni oshiradi va tejamkorlik ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Keyinchalik vaqt o'tishi bilan asta-sekin bola yoshi ulg'ayib oilasi va o'z manfaati bilan bog'liq kerakli iqtisodiy ko'nikmalarni shakllantiradi va ularni oila turmushida qo'llaydi. Xullas, yuqoridagi tadbirlarning barchasi bolani oila va ijtimoiy hayotga tayyorlashda "hayot maktabi" bo'lib xizmat qiladi. Bola oilada mustaqil iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish jarayonida unda iqtisodiy tushuncha, ma'lumot, ong, iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy madaniyat kabi iqtisodiy sifatlar shakllanib boradi.

Shunday qilib, oilada ota-onalarning bolani iqtisodiy tarbiyalash komil inson tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lish bilan birga, oilani barqaror iqtisodiy ta'minlashning, shuningdek mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotining zamini bo'lmog'i darkor.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Iqtisodiy tarbiya bola kamolotida qanday o'rin tutadi va u haqda mashhur kishilar qanday fikrlar bildirishgan?

2. Oilada bolani iqtisodiy tarbiyalashning maqsad, vazifalarini nima uchun pedagogika-psixologiya bakalavr mutaxassislar va ota-onalar bilishlari kerak?
3. Oilada bolani iqtisodiy tarbiyalashning qaysi shakl, metodlari, vositalari mavjud?
4. Bolada iqtisodiy ko'nikma va odatlar nima uchun tarkib toptiriladi?
5. Bolani iqtisodiy tarbiyalashda ota - onalarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Bolani huquqiy tarbiyalash

Oilada huquqiy tarbiya tarbiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Inson turmushi, oila a'zolarining va ijtimoiy hayotning ishonchli, barqaror, mustahkam bo'lishi huquqiy ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'liq. Oilada maqsadli huquqiy tarbiyani tashkil qilmay, inson turmushini, oila a'zolarining hozirgi va kelajak hayotini davom ettirish qiyin.

Bu borada Mirzo Ulug'bekning olti asr avval inson hayotida huquqiy tarbiyaning ijtimoiy, amaliy ahamiyati haqida "Ilm ila o'z haq-huquqi sari intilish bandasi uchun farzdir va bu hayot ekanmi ani ado etmog'i kerak", -deb bildirgan fikri diqqatga sazavor va har bir ota-onaga alohida ijtimoiy mas'uliyat, burch va vazifa yuklaydi. Haqiqatan ham inson o'z murod, maqsadiga erishish uchun faqat bilimli bo'lishning o'zi yetarli emasligini hozirgi oila va ijtimoiy turmush ko'rsatib turibdi. Shuning uchun hozir insonlar, xususan bolalar bilimli bo'lish bilan birga o'z haq-huquqini himoya qilish bo'yicha aqliy jihatdan rivojlangan bo'lishi shart. Bu hozirgi oila va ijtimoiy hayotning obyektiv ehtiyoji, talabi bo'lib qolmoqda. Demak oilada bolani huquqiy jihatdan tarbiyalamay, komil insonni shakllantirish mumkin emas.

Oilada bolani huquqiy tarbiyalash va hayotga tayyorlashni amalga oshirgandan keyin oilalar huquqiy jihatdan mustahkam, iqtisodiy tomondan barqaror rivojlanish yo'liga o'tadi va oila a'zolari to'q, faravon hayot kechirishi ta'minlanadi. Oilada bola huquqiy tarbiyasini ro'yobga chiqarmay huquqiy demokratik jamiyat, davlat qurishni tasavvur etish qiyin. Xullas demokratiyani oiladan boshlash kerak.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning inson kamolotida, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va amaliy ahamiyati haqida "Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat

qurmoqchimiz. Adolat va haqiqatga intilish xalqimiz tabiatining muhim fazilatlaridan biridir.

Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart. Davlatchilik va fuqarolik munosabatlari, mehnat va uy joy, nafaqa va soliq, tabiatni muhofaza qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari, qo'yingki, hayotimizning hamma jabhalari ana shu zaminga tayanishi zarur"¹, -deb bildirgan fikri nafaqat demokratik jamiyat qurish uchun emas, balki bevosita jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilaga ham taalluqli desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan yondoshganda oilada bolani huquqiy tarbiyalashni amalga oshirish o'ta dolzarb pedagogik ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda va ijtimoiy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi "Ota-onalarning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlari"da "Ota-onalar o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir"², -deb huquqiy jihatdan asoslangan va ota-onalarga ijtimoiy mas'uliyat yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining oila bobidagi moddalar, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida qonun"dagi talablar oilada bolani huquqiy tarbiyalashga pedagogik asos, negiz, poydevor bo'ladi. Oilada bolani huquqiy tarbiyalash mas'uliyati ota-onalarga yuklatiladi. Buning uchun ota-onalar oilada huquqiy tarbiyaning maqsad, vazifasi haqida atroflicha ilmiy ma'lumotga ega bo'lishi darkor.

Bakalavrlar mazkur ijtimoiy vazifani ro'yobga chiqarish uchun ota-ona oilada farzandlarining istiqbolli, uzoq kelajagini aniq tasavvur etishlari lozim. Ya'ni ular bolaning hozirgi va kelajakda ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlarida huquqlarini bilishi, uni o'z shaxsiy hayotida qo'llay olishi nimaga yoki bilmasligi qanday oqibatlarga olib kelishi hamda bola kamolotida qanday o'rin tutishligini bilishlari, anglashlari shart. Agar ota-onalar bu masalaga e'tiborsiz bo'lsalar bola hayotida ko'plab muammolar sodir bo'ladi. Ya'ni bola o'z haq-huquqini bilmaydi, uni himoya qila olmaydi, birovlariga tobe qilib

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий – ижтимоий истикболининг асосий тамойиллари. Тошкент, "Ўзбекистон", 1995 йил, 13-бет.

² Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси. Тошкент, "Ўзбекистон", 1998 йил, 46-47-бетлар.

qo'yadi va oxir oqibat u jabr ko'radi va hokazo. Bundan birinchi galda bola, oila va jamiyat katta moddiy va ma'naviy zarar ko'radi. Bolaning kelgusida shunday ahvolga tushmasligi uchun ijtimoiy mas'ul bo'lgan ota-onalar bola huquq tarbiyasini to'g'ri tashkil qilishlari lozim.

Agar ota-onalar oilada bola huquq tarbiyasini hozir aniq, ravshan ilmiy jihatdan tasavvur eta olmasalar, bola huquq tarbiyasi noaniq, taxminiy maqsadsiz olib boriladi va natijalari ham shunga yarasha kechadi. Har bir ota-ona o'z farzandlarining kamolotini ko'rishni, hayotda o'z o'rnini, mavqeyi topishini, baxt-saodatli bo'lishini hamda keksayganda ular oldida, piru-badavlat, izzat-hurmatli, ardoqli ota-ona bo'lishni xohlaydi va shunga harakat qiladi.

Ardoqli ota-ona bo'lish uchun esa avvalo hozir o'zi bosh bo'lgan oilada o'zlarining ijtimoiy huquqiy burchi va vazifasi nimalardan iboratligi to'g'risida ilmiy ma'lumotga ega bo'lmog'i tarbiyachilik faoliyatida zarur bo'ladigan tajribaga ega bo'lishini kundalik hayot taqozo qilmoqda. Bu borada ota-onalar oilada bola huquqiy tarbiyasining maqsad, vazifalarini nafaqat bilishlarnigina emas, balki hozir o'z farzandlari tarbiyasining tarkibiy qismiga ya'ni ongiga (fikriga) zaruriy huquqiy ma'lumotni singdirmas ekan, huquqiy ko'nikma, malaka va odatlarni o'z vaqtida, o'rnida tarkib topishiga muvofiq bo'lmas ekan kelgusida farzandlari, oilasi, mahalla, jamiyat oldida izzat-hurmatga, e'zozga, qadrga sazavor bo'lmasligini eslatish joiz. Demak, ota-onalar nafaqat o'zlarining shaxsiy manfaatini emas, balki farzandlari, jamiyat kelajagini o'ylab bu sohada o'ta ziyrak va tadbirli bo'lishlari lozim. Shuning uchun qomusimizda va boshqa me'yoriy hujjatlarda huquqiy asoslangan ota-onalik mas'uliyati, burchi, vazifasi ota-onalarning huquqiy bilimlarini, tarbiyachilik faoliyati uchun kerakli ko'nikma, malaka va tajribasini tarkib taptirishni, oshirishni va takomillashtirishni talab qilmoqda.

Mazkur talabning hozir oilada tadbiq etilishi haqida O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash Milliy dasturida: "...Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi"¹, -deb ota-onalarning ijtimoiy tarbiyaviy vazifalari belgilab berilgan. Haqiqatan ham oilada bolani oilaga, Ona -Vatanga sadoqatli qilib huquqiy tarbiyalash uchun mutaxassislarning, ayniqsa ota-onalarning huquqiy

¹ Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент, "Шарқ", 1997 йил, 55-бет.

tarbiyachilik madaniyatini oshirish, takomillashtirish -hozir oila tarbiyasining dolzarb muammosi va ijtimoiy vazifasi bo'lib qolmoqda.

Ota-onalar yuqoridagi talablarni amalga oshirishda o'z farzandlarida huquq tarbiyasining quyidagi bosqichlari ya'ni: huquqiy tasavvur, huquqiy tushuncha, huquqiy bilim, huquqiy tarbiya, huquqiy ma'lumot, huquqiy ong (huquqiy fikrlash)ni bola yoshi, tarbiyalanganligi, fe'l-atvori, tipologik xususiyatlarini hisobga olib tarkib toptirishga muvofiq bo'lishi lozim. Ota-onalar bolada shu bosqichlarga tayanib ularning shaxsiy, oila va ijtimoiy turmushning barcha yo'nalishlarida amalda qo'llash bilan bog'liq huquqiy ko'nikma, odatlarni shakllantirishga muvofiq bo'lishlari zarur.

Ota-onalarning asosiy vazifasi yuqorida ta'kidlangan huquqiy asoslarga tayanib o'z farzandlari tarbiyasining tarkibiga huquqni singdirish orqali hayotda zarur bo'lgan huquqiy ko'nikma, malakalarni tarkib topdirishga erishishdan iborat.

Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun moddalari mohiyatini ota-onalar uqtirish, tushuntirish, hikoya, suhbat, bahs, namuna, o'z-o'zini tarbiyalash, rag'batlantirish, jazolash metodlaridan o'rinli foydalanib, bola ongini shakllantirish eng to'g'ri yo'ldir. Keyin bola ongga asoslanib mashqlantirish metodi yordamida huquqiy ko'nikma, odatlar tarkib toptiriladi. Masalan, ota yoki ona oila sharoitida o'g'li yo qizining jamoat transportida: avtobus, tramvay, trolleybusda tartib qoidalarga rioya qilib, o'z haq-huquqini huquqiy jihatdan tushuntirib, o'zini boshqara olishi hamda bular buzilsa, o'zini himoya qilish ko'nikmalarini birgalikda mashq qildiradi. Yoki bolaga ota-onasi, oila a'zolari oldidagi huquqiy burchi, vazifasi nimalardan tashkil topishini anglatib borishi yoki bozorda iste'molchi sifatida o'z haq-huquqi yuzasidan muomala, munosabatini, xulq-atvorini qanday boshqarish bo'yicha ota-ona bilan birgalikda ishtirok etishi amaliy ahamiyatga ega. Shunday mashqdan keyin bola oilada, bozorda yoki jamoat joylarida qanday xatti-harakatni, xulq-atvorni huquqiy tomondan to'g'ri yo noto'g'riligini, mumkin, yo mumkin emasligini, ma'qul, yo noma'qulligini asta-sekin anglab yeta boradi. Bolada bosqichma-bosqich huquqiy ko'nikma, shaxsiy tajriba tarkib topib, ortib oila va ijtimoiy turmushga tayyorlanib boradi. Shuning uchun ham ota-onalar farzandlarining huquq tarbiyasi bo'yicha aqliy jihatdan rivojlanishiga alohida e'tibor qaratishlari ham oilaga, ham jamiyatga birdek naf keltiradi.

Oilada bolani huquqiy ta'lim-tarbiyasi quyidagi shakl, metod va vasitalar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Bizningcha oilada ota-onalar asosan farzandlarni huquqiy tarbiyalashda va hayotga tayyorlashda o'z oila tarbiyaviy faoliyatida uch yo'nalishda ibratnamuna bo'lishlari darkor: **Birinchidan**, ota-onalarning bolaga huquqiy tarbiya bo'yicha bilimi, ma'lumoti, ongi ya'ni fikrlashi jihatidan ustun bo'lishi. **Ikkinchidan**, huquq bo'yicha aqliy ma'lumotini, ongini oila va ijtimoiy hayotda tadbiq qilish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy ko'nikma, malakalarni o'zlarida tarkib topdirmog'i ya'ni ularni mustaqil bajara olishlari juda muhim. **Uchinchidan**, huquq bo'yicha aqliy ma'lumotni ya'ni fikrini, hosil qilgan huquqiy ko'nikma, malakalarni o'z shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy hayotida va ayniqsa mehnat jamoasida qo'llay olishi juda muhim.

Agar ota-onalar oila sharoitida yuqoridagi huquqiy sifatlarni o'zlarida tarkib toptirsa, bolaning huquq tarbiyasi talab darajasida shakllanadi. Ammo bu sohada o'zbek oilalarida muammolar mavjud. Mazkur muammolarni hal qilishda pedagogika-psixologiya mutaxassislari va ayniqsa oilada ota-onalar o'ta ziyrak hamda tadbirli bo'lishlari maqsadga muvofiq. Buning uchun ota-onalar o'z bolalarining fe'l-atvorini, huquqiy tarbiyalanganlik darajasini, bu boradagi hozirgi zamon talablarini va oila shart-sharoitini, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishlari lozim.

O'zbekiston oilalarida bolani huquqiy tarbiyalash va tayyorlashda ota-onalarning tarbiyachilik faoliyatini tashkil qilishni yanada yaxshilash bo'yicha Respublikada quyidagi tadbirlarga asosiy e'tiborni qaratishlari maqsadga muvofiq.

Bular: Ommaviy axborot vositalarida oilada bolani huquqiy tarbiyalash bo'yicha radio eshittirishlarini, oynai jahon ko'rsatuvlarini, internet axborotlarini ota-onalarga moslashtirib tashkil qilishni doimo, uzluksiz yo'lga qo'yish. Gazeta, jurnal sahifalarida bola huquq tarbiyasi haqida pedagogik huquqiy maqolalarni, uslubiy tavsiyalarni, ommabop pedagogik adabiyotlarni ya'ni: "oila", "oilada bolaning huquq tarbiyasi", "Konstitusiyani o'rganamiz" kabi yangi pedagogik yo'nalishdagi maqolalarni chop etishga erishish;

Oilada bola tarbiyasi bo'yicha mahalla, tuman, viloyat va Respublika miqiyosida ilmiy-nazariy konferensiyalar uyushtirish va undagi ma'ruzalarni chop etishni yo'lga qo'yish va ota-onalarga yetkazib berish;

Ilg'or ota-onalarning huquqiy tajribasini o'rganish va yoyishni radio, oynai jahon eshittirish, ko'rsatuvlarida hamda ularning hayotini ifodalovchi video kassetalarni ishlab chiqarishga erishish orqali sotishni tashkil qilish va h.k.

Yuqoridagi tashkiliy tarbiviy tadbirlarning va yangi pedagogik maqolalarning chop etilishiga erishish oilada ota-onalarning huquqiy tarbiyachilik faoliyatlari samaradorligini oshirishga, takomillashtirishga zamin hozirlaydi. Shunday qilib, oilada bolani huquqiy tarbiyalash va hayotga tayyorlash komil inosnni shakllantirishning, oilani barqarorlashtirishning, mustahkamlashning, shuningdek, mamlakatda huquqiy demokratik davlat qurishning tarkibiy qismi bo'lmog'i lozim. Chunki oilada bolani huquqiy tarbiyalamay, huquqiy jamiyatni qurish mushkul.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Nima uchun huquqiy tarbiya tarbiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi?
2. Insonni huquqiy tarbiyalash haqida qanday fikrlar mavjud?
3. Oilada huquq tarbiyasining maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni asosida Ota-onaning bolani huquqiy tarbiyalashdagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Bolada huquqiy bilim va ko'nikmalar nima uchun tarkib toptiriladi?
6. Bolani huquqiy tarbiyalashdan bola, oila va mamlakat qanday manfaat ko'radi?

Bolani ekologik tarbiyalash

Oilada ekologik tarbiya inson tarbiyasining asosiy tarkibiy qismidir. Ekologik tarbiya tarbiyaning tarkibiy qismlari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Chunki ekologik tarbiyani bola tarbiyasining tarkibiga singdirish oila pedagogikasi fani oldidagi asosiy muammo bo'lib turibdi. Ekologik tarbiyani oilada maqsadli tashkil qilmay, insonning va oila a'zolari sog'ligini, turmushini ta'minlash va ijtimoiy hayotni barqarorlashtirish mumkin emas. Shuning uchun ekologik tarbiyani oilada amalga oshirish dolzarb ijtimoiy pedagogik muammo bo'lib qolmoqda.

O'zbek xalq tarbiyashunosligida ekologik tarbiyaga alohida e'tibor berilib kelingan. Ota-bobolarimiz zilol suvni, buloqlarni, so'lim daraxtzorlarni, qoya-g'oyalarni, xosiyatli o't-o'lanlarni, gul-giyoxlarni muqaddas bilib asrashga, niyati nopok kishilardan saqlashga, toptamaslikka, oyoq osti qilmaslikka alohida e'tibor berib

kelganlar. Xalq nopok kishilar haqida shunday iboralar qoʻllagan: «Daraxt koʻr qilgur», «Moling sutdan qolsin», «parranda ursin (qargʻish)». «Suvga tupurma koʻzing koʻr boʻladi»; kabi naqlar ham bekorga aytillagan. Ota–bobolarimiz oʻz farzandlarini tabiatga mexr–muxabbat ruhida tarbiya qilganlar. Beziyon boʻlgan oddiy qurt–qumursqani ham oʻldirish gunox deb ularning qulogʻiga qoʻyganlar. «Til zaboni yoʻq, jonivorlarga ozor berma gunoh boʻladi!»; «Sigir–oilaning bozori»; «Tovuq yetti xazinaning biri»; «Kuy bor uyda baraka bor» singari hikmatli naqlar toʻgʻilgan.

Halq tarbiyashunosligidagi ajoyib odatlardan yana biri suvning tozaligini saqlash va eʼzozlashdir. Ota–bobolarimiz suvning bir tomchisini ham nobud qilmaslikka intilganlar. Har qanday oqar suvni «yetti dumalasa halol» deb hisoblashar, «Suvga tupurma, majrux boʻladi» degan naql qadimdan meros boʻlib kelgan. Suvga tuflash, unga magʻzava va chiqindilarni oqizish, turli xas, choʻp va axlatlarni tashlash katta gunox hisoblangan. Ilgari paytlarda xalqimizning eng olijanob oilaviy anʼanalardan biri ovqatlanib, choy ichib boʻlgandan soʻng dasturxon atrofida kekxa yoki yoshi kattaroq kishi dasturxon va taom haqi, duo–fotiha oʻqilgandan soʻng sandal atrofida oʻtirib suhbatlar oʻtkazilgan.

Suv–hayot demakdir. Suv bor joyda odam yashnaydi, oʻt–oʻlan, ekin tikin, gul–daraxtlar gurkirab oʻsadi. Qurt qumursqadan tortib odam va hayvonlargacha suvdan baxramand boʻladilar. Suvning qadriga yetmaslik, uni nes–nobud qilish, avaylab ishlatmaslik qanchalik ogʻir oqibatlariga, tabiatdagi muvozanatning buzilishiga olib kelishini bolalarga uqtirib kelishgan. Xalqimiz qadim zamonlardan suvga eʼtiqod qoʻyib, yozning jazirama kunlarida «Suv sayli» oʻtkazgan. Ota–bobolarimiz «Suv–tabiat inʼomi, hayot manbai» deb bejiz aytishmagan. Har bir tomchi suvni gavhardek qadrlab, bogʻ–rogʻlar yaratishgan.

Xalq tarbiyashunosligidagi bolalarning ekologik taʼlim–tarbiyasi haqidagi gʻoyalar «Avesto»da yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim–kechak, oziq–ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida eʼtibor berilgan. Unda Goʻristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda tashkil etish, uni oʻrab qoʻyish, Inson yoki hayvon oʻligi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bir necha marta suvga toʻldirib boʻshatish, yomqir suvi bilan yuvish, toʻldirib boʻshatish taʼkidlangan. Bolalar yosh paytidanoq daraxt koʻchati oʻtqazish, uy – roʻzgʻor qurollari yasash, yerga ishlov beri shva chorva bilan shugʻullanishga oʻrgatilishi shart

hisoblangan. Yerni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar «400 qamchi urish jazosi» bilan javobgarlikka tortilgan. «Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir» – deb e'tirof etilgan g'oyasi torg'ib qilingan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da oila gigenasi, atrof muxitni, aholi yashaydigan joylarni toza tutish, ko'cha hovli, suv havzalari, ariq va chashmalarni iflos qilmaslik haqida maxsus boblar mavjud. Chunonchi ko'cha eshigi yoniga axlat to'plab qo'ygan xonadon sohibiga jamoaning kunimi(roziligi) bilan 25 darra, hovuz va chashmadan nopok ko'za yoki chelakda suv olgan shaxsga 5 darra urilgan.«Avesto»da yaxshilik kuchlarida insonlarni yuksak fazilatlariga asoslanib jismoniy, axloqiy, aqliy, tabiatni himoya qilish, kabi go'zallikka doir juda ko'p muammolar mujassamlashgan. Jumladan «Avesto» yerda dehqonchiligu, chorvachilikni rivojlantirish uchun kishilarning sog'lom, baquvvat bo'lishini ta'minlashi iltijo qilingan, yaxshi ish, yaxshi xulq, yaxshi odat ularda barqaror bo'lishi tanlangan.

«Avesto»da keltirilgan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, inson hayotida tabiat boyliklari, ne'matlari, hayvon va parrandalar, hasharotlar, o'simliklar, daraxtlarni asrash va yaratish orqali turmush faravonligini, tinchlikni, to'qlikni, sog'liqlarini ta'min etish singari ezgu niyatlariga yetishishlari asoslangan.

Demak, o'zbek xalqimiz ilgaridan oila turmushida bolaga ekologik tarbiya berishga alohida e'tibor bergan. Hozir ham bolani ekologik tarbiyalashdagi milliy an'ana, urf-odatlarni saqlash, davom ettirish va uni takomillashtirib borishni kundalik hayot taqozo qilmoqda.

Donishmandlik durdonasi hisoblangan Muqaddas diniy kitobimiz «Qur'oni Karim» va Hadislarda ham ekologik tarbiya xususida qimmatbaho hayotiy g'oyalar bayon qilingan. Masalan: «Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do'zaxga maxkum etur», deb insonlarni qo'rqitish orqali tabiatga zarar keltirmaslik, daraxtlarni avaylab-asrashga, parvarish qilishga, daraxt ekishga, daraxt soyasi orqali issiqlikdan, himoyalaniishi, mevasidan baxramand bo'lib yurishlarini, insonga ma'naviy va iqtisodiy tamondan ozuqa berishlarini e'tirof etish bilan birga, uni noo'rin kesib tashlaganlarni do'zaxga maxkum etish bilan jazolanishi etirof etilgan.

Yana «Dehqonchilik bilan shug‘ullaniglar, dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qo‘riqchilarni ko‘paytiringlar» deyish bilan halol mehnat samarasini ko‘rish zarurligi o‘qtiriladi. «Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o‘tqazsa, so‘ng mevasidan qush yoki hayvon yesa uning ekinidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi» – deyilgan hadis misolida bag‘rikenglik, jonzotlarni asrash zarurligi, insonlarni mehnat qilishga, mehnat qilish orqali o‘z turmushlari to‘q, faravon, mazmunli, fayzli bo‘lishlarini etirof etilsa ikkinchi tomondan yerlardan bexuda foydalanmaslik, yomon ekanligi, dehqonchiliklarni asraydigan, muxofaza qiladigan, qadriga yetadigan, mehnat qiladigan insonlarni ko‘paytirish g‘oyasi maqsadi qilinib ularning mukofotlanishi aytilgan.

«Ekmoq niyatida qo‘lingizga ko‘chat tutqazgan paytda nohosdan qiyomat qoyil bo‘lishi aniq bo‘lganda ham ulgursangiz, uni ekib qo‘yavering», «Kim suv toshqinini to‘xtatsa yoki yong‘inni o‘chirsa, unga shohidlik ajri beriladi», kabi hadislarda ekologiya va tabiat muhofazasiga oid tushunchalar bordir. Bunday hadislardan tarbiya jarayonida foydalanilsa, bolalarda milliy ekologik qadriyatlarga hurmat hissi shakllanadi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar shundan dalolat berib turibdiki ota – bobolarimiz azal–azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko‘rsatishgan. Yurtni obod etishgan, ko‘chalarni, hovlilarni sarishta saqlashgan. Xalqimizning tabiatga munosabati urug‘ qadash, Qovun sayli, Suv sayli, Uzum sayli, Hosil bayrami, gul bayrami, Navro‘z bayrami, Xirmon to‘yi kabi bayramlarda ham ifodalangan. Bunday tabiat bayramlari ularning hayot tarziga aylanib an‘ana, udum va odatlarida o‘z o‘rnini topgan. Mazkur ekologiyaga oid an‘ana, urf–odat va qadriyatlarni takomillashtirish bugungi ta‘lim–tarbiya muassasalari, va keng jamoatchilikning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Hozir bolani oilada ekologik tarbiyalash hayotning obyektiv zaruriy ehtiyoji, talabi bo‘lib qoldi. Bularning barchasini ro‘yobga chiqarish insonni komil qilib shakllantirish bilan uzviy bog‘liq. Buning uchun tabiatning tabiiy imkoniyatlarini saqlash, uni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish insonni fikrlashga da‘vat qiladi. Ammo hozirgi davrda atrof-muhitning buzilishi va unga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish ko‘plab ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday ekologik muammolar nafaqat insonlar hayotiga emas, balki o‘simlik, hayvonot olamiga ham katta tahdid solmoqda.

Ana shu ekologik muammolarni ilmiy va amaliy hal qilishning eng to'g'ri yo'li mamlakat aholisiga xususan, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu to'g'rida O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi 55-moddasida "Yer va yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir"¹, va yana 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar"¹ - deb o'rinli ta'kidlangan.

Haqiqatan ham insonning atrof tabiiy muhitga munosabatni tarbiyalamay, uning sog'lom yashashini, uzoq umr ko'rishini, barqaror hayot kechirishini davom ettira olmaydi. Inson o'z oldidagi maqsadiga erishish uchun u iste'mol qiladigan moddiy ne'matlarning ayniqsa havo, suvning tozaligini ta'minlash va ularni muhofaza qilish hal qiluvchi omildir. Bunga muvofiq bo'lish uchun insonga ekologik muhit: yer, osmon, havo, suv va qulay shart-sharoit zarur. Buni amalga oshirish uchun inson tabiat va uni muhofaza qilish haqida ilmiy ma'lumotga ega bo'lmog'i va ekologik jihatdan tarbiyalanishi shart.

Inson tabiatan o'simlik, hayvonot olami bilan bir makonda yashaydi. Ammo ular orasida inson ongli tirik jonzot sifatida ulardan ustun turadi. Ana shu ustunlik insonning borliq olamga ayniqsa o'simlik, hayvonlargaгина emas, balki boshqa jonsiz narsalarga nisbatan ekologik munosabatda bo'lishini talab qiladi. Chunki o'simlik, hayvonlar tirik bo'lsa ham fikrlay olmaydi va bir-birlariga xususan odamga g'amxo'rlik ko'rsatmaydi. Ammo inson o'z aql-zakovti bilan tabiatning sofligini va uni muhofaza qilish, saqlash bo'yicha g'amxo'rlik qilishi mumkin. Qachonki inson tabiatga nisbatan bo'lgan ekologik munosabatini o'zida ongli tarbiyalay olsa, uning maqsadga erishishi ta'minlanadi. Aksincha tabiat insonni va boshqa jonzotlarni ayavsiz jazolaydi. Buni hozirgi ijtimoiy hayot ekologik yo'nalishi isbotlab turibdi. Shuning uchun ham hozir nafaqat ta'lim-tarbiya muassasalaridagina emas, balki oilada bolani ekologik tarbiyalash va uni hayotga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo bo'lib qolmoqda.

Ekologik tarbiyani oilada yo'lga qo'yish haqida mashhur rus pedagogi V.A. Suxomlinskiyning "Bolalarga jonim fido asarida": "Men bolalar "Alifbe"ni ochib birinchi so'zni hijjalab o'qishlariga

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Тошкент,-"Ўзбекистон", 2010, 18-19-бетлар

qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim”¹, -deb bildirgan fikri oilada bolani ekologik ta’lim berish va tarbiyalash uning maktabga kelib savod o’rganishdan avval yo’lga qo’yilishi ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki bola maktabda ta’lim olishi avvalo sog’lom bo’lishi va o’zi iste’mol qiladigan ne’matlarning tozaligini ta’minlashi hamda uni muhofaza qilish, saqlash, ehtiyotlash yo’llari haqida ilk tasavvurga, tushunchaga, bilim va malakaga ega bo’lmog’i darkor.

Ekologik muammolarning oldini olish uchun butun O’zbekiston aholisiga, ayniqsa yoshlarga ekologik bilim ko’nikma va malumot berish orqali, ularda ekologik madaniyatni takomillashtirish zarur. Shunday ekan, bolalarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga ekologiyaga oid bilim ko’nikma va odatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat haqidagi tushunchalarni shakllantirish, ularda ruhiy–hissiy ta’sir etish bilan birga tabiatda bo’lgan muhabbat, uning go’zalliklaridan zavq ola bilish kabilarni kamol toptirish o’ta muhimdir. Ekologik madaniyat bolalarda tabitani asrash, unga oqilona munosabatda bo’lish singari ko’nikma va malakalarni shakllantiradi. Har bir shaxsda jamiyat va insoniyat oldida, shuningdek, tabiatga bo’lgan munosabatda o’z burchini anglab yetish kabi mas’uliyatini rivojlantiradi.

Ekologik ta’lim-tarbiya madaniyat haqidagi tushunchalarni shakllantirishda Sharq mutafakkirlari ilmiy merosidan foydalanish muhimdir. Chunki buyuk mutafakkirlarimiz o’z asarlarida inson va tabiat munosabati masalasini hyech qachon chetlab o’tmaganlar. Ularning asarlarida ekologik tarbiya faqat tabiatni muhofaza qilish tarzidagina emas, balki insonparvarlik, inson tafakkurini rivojlantirish, ma’naviy–axloqiy xislatlarni tarbiyalash kabi muhim muammolar bilan bog’liq holda o’z ifodasini topadi. Buning isboti sifatida, biz buyuk allomalarimizning bolalarni ekologik ta’lim–tarbiyalashga oid qarashlarini to’xtalib ochib berishga harakat qilamiz.

Buyuk alloma Muhammad Muso al – Xorazmiy (782-847) risolalaridan birida bunday deb yozgan edi: «Bilginki, dunyoning ko’zlari yoshlansa, uning boshiga g’am, kulfat tushgan bo’ladi. Odamlar, daryodan mexringizni darig’ tutmanglar. Dunyoning yoshli ko’zlari deganda Muhammad al–Xorazmiy nimalarni ko’zda tutgan»

¹ Сухомлинский В.А. Болаларга жоним фидо. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1984 йил, 30-бет.

edi? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? U eng avvalo daryo bilan odamlarning bir-birini tushunishlari, o'zaro mexr – muxabbatili bo'lishlarini nazarda tutgan.

Muxammad al-Xorazmiy (847-yilda) «Kitob surat al-ard» (yerning surati) degan asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdan qit'alar, qutblar, ekvatorlar, gullar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar, o'rmonlar va ulardagi o'simliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek, boshqa tabiiy resurslar, yerning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Imom al-Buxoriyning «al-Jome' as-saxix» asarida yosh avlodda ekologik madaniyatni tarkib toptirishga qaratilgan hadis namunalari keltirilgan. Quyidagi Hadislardan bir nechtasini misol keltiramiz: Hadis: «Dunyo yam-yashil va go'zaldir. Kimki undan haqli ravishda hallolik Bilan olsa, undan baraka topadi. Kimki nafs xoxishi Bilan dunyoni mukkasidan ketib egallasa, qiyomat kuni do'zaxdan boshqa narsaga erishmaydi», «Sadaqaning afzali chanqoq odamlarga suv ulashmoqdir», «Faravonlik vaqtlaringda Tangrini tanib, unga iltijo qilib yur, toki qiyinchilik davringda u ham seni tanisin»¹ deb izoxlangan.

Ibn Sino o'z davridagi barcha ilm sohalarining rivojlanishida turli masalalarni o'z ichiga oluvchi tabiat falsafasiga katta e'tibor beradi. Masalan, kishi daraxtni yaxshilab parvarish qilsa, u yaxshi o'sadi va chiroyli bo'ladi. «Agar kishi chiroyligi aql va farosat bilan birga ko'rolsa va uni sevsa, bu insoniylikning yuqori darajasidir. Bu insonning buyuk ideali hisoblanadi. Ana shunday odamni mard va dono, estetik didi yuksak deb haqli ravishda aytish mumkin»² va «Yana chang-to'zon bo'lmaganda inson besh yuz yil umr kechirishi mumkin» edi -deb ta'riflaydi. Ibn Sino tog'larning vujudga kelishi, Yer yuzining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zil-zila bo'lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta ta'sir qildi.

U barcha yoshdagi kishilar uchun jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni tavsiya etgan. Asab kasalligiga muhtalo bo'lganlarga jismoniy usullar bilan davolanishni maslahat beradi.

Shunday ekan hozirgi ijtimoiy hayotimizda bolalarni har tomonlama kamol toptirishimizda buyuk mutafakkir, olimlarimiz asarlaridagi g'oyalardan bahramand etish har bir ota-onaning,

¹ Ахлоқ – одобга оид ҳадис намуналари, Тошкент, «Фан», 1990 йил

² Ибн Сино, Рисолаи ишқ, Техрон, 1952 йил 20 бет

o'qituvchi– tarbiyachining qolaversa barcha ta'lim muassalari va keng jamoatchilikning burchi, vazifasi bo'lmog'i lozim.

Tarbiyachilar bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishida xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa–yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. O'zbek xalqining qadriyatlari orasida tabiatni saqlash, qadriga yetish, chiroyiga chiroy, ko'rkiga ko'rk qo'shish birqancha manbalarda aks ettirilgan. Jumladan bular xalq og'zaki ijodi namunalari, ya'ni topishmoq ertak, maqol, qo'shiq, doston, tez aytish, bayram–sayillari, folklor o'yinlari, marosimlari va boshqa xalq ijodi manbalari qudratli tarbiya vositasi hisoblangan.

Xalq pedagogikasining bu manbalarida tabiat va inson uyg'unlashuvi muammolari, tabiat va tarixni e'zozlash, saqlash va qadrlashning ahamiyati, hayvonlar dunyosi, qushlar olami hamda dov–daraxtlar, o'simliklar va giyohlarga: yer, suv, borliq–atrofga og'zaki yoki folklor bayram sayillarida yoritilgan insoniy munosabatlar og'zaki yoki bayram sayillarida yoritilgan. Masalan, «Osh ichida tosh, tosh ichida yana osh» (O'rik), «Kichkina dekcha ichi to'la mixcha» (Anor), «daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar» kabi maqol va topishmoqlardan unumli foydalanib tabiat hodisalarining inson uchun naqadar qiymatli ekanligi o'qtiriladi.

Ming afsuski bolani oilada ekologik tarbiyalash bo'yicha sho'rolar davrida e'tiborsizlik, loqaydlik atrof-muhitni muhofazasi bo'yicha ko'plab nuqsonlarga yo'l qo'yildi va ekologik muammolarni yuzaga keltirdi. Tabiatga ekologik munosabatda bo'lmaslik ya'ni: ichimlik suvini ifloslantirish, yashash joyiga befarq qarash, yerdan me'yoridan ortiq foydalanish, qush va hayvonlarning hayotini xavf ostiga qo'yish, bog'larni yo'q qilish va hokazo. Hozirgi davrda ba'zi ko'p aholi yashaydigan ko'p qavatli binolar yoki mahalla hovlilari atrofidagi ayrim fuqarolarning, bolalarning chiqindilarni belgilangan joyga tashlamasligi eng katta ekologik muammo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu ahvolning asosiy tub sababi ba'zi katta yoshdagi fuqaro, yo bolaning atrof-muhit va uni muhofaza qilish bo'yicha ekologik ma'lumotining yoki ekologik ko'nikma, odatlarning tarkib topmaganligi deb xulosa chiqarish mumkin. Bularning barchasi oilada ayrim ota-onalarning bolani ekologik tarbiyalash sohasida nuqsonlar mavjudligini ko'rsatadi.

Oilada bolani ekologik tarbiyalash mas'uliyati ota-onalar zimmasiga yuklatiladi. Mazkur vazifani bajarish uchun mutaxassislar

birinchi galda ota-onalar oilada ekologik tarbiyaning maqsad va vazifasini ilmiy jihatdan tasavvur qilishlari hamda oila sharoitida amalga oshirishlari shart. Albatta bu sohada oilaga maktabgacha tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus o'quv muassasalari bolaga (o'smir va o'spiringa) ekologik ta'lim-tarbiya berishi orqali o'z hissasini qo'shadi hamda ekologik tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

Eng qadimgi an'analardan biri Navro'z saylini o'tkazishdir. Navro'zni xalqimiz juda o'tmishdan bayram sayli sifatida nishonlab kelgan. Navro'zning bundan 3 yarim 4 ming yil burun bizning o'lkamizda paydo bo'lganligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Navro'zning bayram qilinishi teran xalq an'analari yerga va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabat, dehqon mehnatini e'zozlash, hosilni yig'ish munosabatiga bag'ishlangan bayramlarning ko'pchiligi bevosita zardushtiylik an'analari bilan bog'liqdir. Yerga urug' qadam boshlanganda «Dalaga qush chiqarish», «Shoxmoy», «Ekin sayli», «Qush oshi» marosimlarini o'tkazganlar. Hosilni yig'ishtirib olishda esa «Ona bug'doy», «Xirmon to'yi», «Hosil bayrami» kabi tantanalar bo'lgan.

Navro'zning kirishi kalendar bo'yicha mart oyining 22-kuniga to'g'ri keladi. Navro'z saylining boshlanishi qish bo'yi qor uyumlarining erib tugashi, tuproq ustki qatlamining isishi, tabiatning uyg'onishi, uyquga ketgan o'simlik va hasharotlarning uyg'onishi hamda keng dalalarda ko'm– ko'k maysalar qoplanishi bilan tavsiflanadi. Navro'z saylidan keyin an'anaga ko'ra qishloq joylarida tajribali ustozlardan, tabarruk kekxa dehqonlar yerni ishlashga birinchi bo'lib qo'l urib berishgan va dehqonchilikda yuqori mo'l hosil olish uchun yaxshi istaklar bildirishgan. Shundan so'ng yer haydash, keng dalalarga bug'doy, arpa, so'li singari urug'larni sepish, mevali daraxtlar o'tqazish avj, olib ketgan. Ko'milgan uzum, anor va anjir singari mevalarni ochish bosqichma–bosqich olib boriladi. Umuman dehqonlar eng shimarib ishga kirishadilar.

Navro'z saylida qishloq va shaharlarda uylar, hovlilar, ko'chalar tozalanib, tartibga keltiriladi, navro'z saylida xalqimiz odatiga ko'ra kichik yoshdagi bolalarning xonadonma–xonadon kirib boychechak aytishi (boychechak sayli) udum bilan ham yaqindan bog'langan boychechak bahorning kirib kelishidan darak beruvchi o'simlikdir. Bolalar qishloq joylarida 10-15 tasi bir guruxga birlashib, har bir xonadonga kirib o'zlari katta yoshdagi avlodlardan o'rgangan

aytishuvlarni aytishadi. Bu marosim hozirgi kunimizda ham saqlanib amalga oshirilib kelinmoqda. Masalan:

Qattiq yerdan qoltirab chiqqan boychechak...

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak...

Boychechagim bolasi, qulog'ida donasi,

Olay desam yugurib chiqadi onasi

Moy beradi momosi, pul beradi bobosi...

Yoki

Boychechagim boylandi, qozon to'la ayronidir

Ayroningdan bermasang, qozon tovog'ing vayronidi.

Singari xalq terma bayt va ashulalarini jo'r bo'lib aytish, ota-bobolarimizdan bolalarga ham o'tib kelmoqda. Navro'z aytilgan guruhga har –bir oila non yoki xolva, turshak, shirinlik, pul singarilar bilan rag'batlantiriladi. Bu an'ana xalqni tabiatdagi birinchi bahor faslining darakchisi boychechakning ochilishini xabardor qilish hamda kishilarni bahor fasliga tayyorgarlik ko'rish haqida xabari hamdir.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosa yasash mumkinki xalq tarbiyashunosligining hamma manbalarida jumladan «Avesto», «Qur'oni Karim», «Hadislar», xalq og'zaki ijodi namunalari; maqol, topishmoq, ertak, matal, qo'shiq, doston, tez aytish; bayram sayillari, folklor o'yinlar marosimlarida ekologik tarbiya masalasi atroflicha keng, aniq ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Oilada ota-onalar o'z farzandlariga doimiy ravishda tabiat in'omi bo'lgan suv haqida, undan tejab–tergab foydalanish to'g'risida suhbatlar va tushuntirish ishlari olib borishlari lozim. Bunday tadbirlar esa kelajak avlodning sog'lom, baquvvat, tetik bo'lib o'sishi bilan birga haqiqiy uy egasi, chinakam xo'jalik yurituvchisi bo'lishiga yordam beradi.

Bu kabi tarbiyaviy ishlar keyinchalik maktablarda, o'quv muassasalarida oila bilan hamkorlikda olib borilsa, yana ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. Agar boshlang'ich sinflarda toza ichimlik suvini tejash haqida gap yuritilsa, yuqori sinflarda esa gap uning xalq xo'jaligidagi ahamiyati to'g'risida boradi. Ayni paytda hamma ham tejamkorlik qoidalariga rioya etavermaydi.

Keling, bir masalaga to'xtalib o'taylik. Har bir oila a'zosi bir kunda 15 litrdan suv tejasa, o'rtacha bir xonadonda 750 litr suv tejalar ekan. Agar bu ko'rsatkich bir oyga ko'paytirsak, 2250 litr, bir yilda esa 28 tonna suv tejaladi. Bu raqamlarni agar O'zbekiston aholisi miqyosida davom ettirsak, buyuk bir daryo suvi tejalgan bo'lur edi.

Bir litr toza ichimlik suvini tayyorlab xonadonlarga kran orqali yetkazib berish uchun davlatimizning bir necha ming so'm puli xarjlanadi. Agar unga sarflanadigan xizmatlar, xlor narxi qo'shib hisob-kitob qilinadigan bo'lsa 1 litr suv qanchalik qimmatga ega ekanligini hamma ham bilavermaydi. 1 tonna va 100 tonna suv uchun sarflanayotgan mablag'ni ko'z oldingizga keltira olasizmi? Bu davlatimiz va xalqimizning bitmas– tunganmas boyligi emasmi?

Bugungi kunda kelajak avlodimiz bo'lgan yoshlarni, sog'lom, baquvvat, har tomonlama chiniqqan qilib tarbiyalash, ta'lim–tarbiyani istiqloq g'oyalari asosida yuqori pog'onaga ko'tarish davrning qat'iy talabi, jamiyatning ijtimoiy topshirig'i. Keyingi paytda davlatimiz tomonidan ham suvni tejash haqida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir xonadonga suv hisoblagichlar qo'yilayotir. Gazeta, jurnal, televideniya hamda radio orqali suvdan oqilona foydalanish to'g'risida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Bundan ko'rinadiki, toza, chuchuk ichimlik suvining qadri yuksak ekanligini har birimiz his etishimiz kerak. Ota–ona, tarbiyachi, o'qituvchi, jamoat tashkilotlari bu borada hamkorlikda ish yuritsalar, maqsadga muvofiq bo'lur edi. Bunday faollik bugungi kunning dolzarb da'vatidir.

Oila sharoitida bolalarga ekologik bilim, ko'nikma va odatlarni hosil qilishda milliy oilaviy an'analarning o'rnini katta. Misol tariqasida **«Oilada hosil bayrami»**ni nishonlashni quyidagi reja asosida tashkil etilib olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Hosil bayramiga oila a'zolarining amaliy tayyorgarligi.
2. Boshlovchining kirish so'zi.
3. Oila bog'ida (dalasida) yetishtirilgan hosildan dasturxonni bezash va taom tayyorlash.
4. Oila oqsoqoli va onaxonning dasturxondagi meva va polizlardan birinchi bo'lib tatib ko'rib berish.
5. Bolalarning hosil bayramga bag'ishlab yodlagan she'rlari, topishmoq va maqollarni aytishlari.
6. Magnitafon yoki DVD diskdan yoqimli kuy va ashula eshitish hamda taomlarni oila a'zolarining baham ko'rishlari.
7. Hosilni yetishtirishda alohida o'rnak ko'rsatgan oila a'zosi so'zi.
8. Hosil bayramini yakunlaydigan oila oqsoqoli yoki onaxonning so'zi va g'oliblarni taqdirlash.

Hosil bayramiga oilaning barcha a'zolari tayyorgarlik ko'rishi lozim. Tayyorgarlik oila bog'idagi bir necha meva va polizlar pishganda o'tkazilsa yanada yaxshiroq bo'lar edi. Hosil bayramini boshlovchi oiladagi katta yoshdagi farzand bo'lishi mumkin. U ukalariga, singillariga yodlash kerak bo'ladigan she'rlarni, topishmoqlarni oldindan rejalashtirilishi kerak. Ukalari, singillari tayyorgarligini nazorat qiladi va ularga yaqindan yordam beradi.

Boshlovchi hosil bayramini boshlashdan avval oila bog'ida pishgan meva va polizlardan oila a'zolariga yetarli tuzib dasturxonni bezaydi. Kerakli barcha narsalarni o'z vaqtida oila a'zolari yordamida tayyorlaydi. Boshlovchi hosil bayramini boshlab oila bog'ida ko'pgina meva va polizlar g'arq pishganligini, bugundan boshlab barcha oila a'zolari oila bog'idan bermalol iste'mol qilishi mumkinligini aytib, uning ya'ni hosilning yetilib pishilishigacha bo'lgan mehnatni qisqacha ta'kidlab o'tadi. Ammo meva va polizlarning shox va palaklarini sindirmasdan, payxon qilmasdan, isrof qilmasdan iste'mol qilishi zarurligini alohida ta'kidlab ko'rsatadi.

Hosil bayramida oila oqsoqoli yoki oila onaxoni dasturxondagi barcha meva va polizlardan namuna olib birinchi bo'lib tatib ko'radi. Shundan keyin barcha oila a'zolari birin – ketin baxam ko'radilar. Bu yerda ham ota – bobolarimizdan, avloddan–avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan an'anaga amal qilishlari lozim. Birinchi eng obro'li oqsoqol yoki onaxon, so'ngra ota-ona, aka-opalar va boshqa kichik bolalar navbat bilan boshlashadi. Bu an'ana birinchidan kattalarni hurmat qilish bo'lsa, ikkinchidan tabiat ne'matlari qadriga yetishga, e'zozlash, qadrlashga o'rgatsa, uchinchidan bolalarni sabr-toqatli bo'lishga, to'rtinchidan barcha oila a'zolarining bir-birlariga hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Eng muhimi bolalarda axloqiy ekologik munosabat haqidagi tushunchani tarkib toptirishda va kerakli xulq-atvorni shakllantirishda asosiy o'rin egallaydi. Boshlovchi hosil bayramiga she'r yodlagan bolalarga navbat beradi.

OLMA

Zafar Diyor she'ri

1-bola Boqqa kirdim olmalar,
 Qip-qizil pishibdi,
 Silkitibdi shamollar,
 Yerga to'p-to'p tushibdi.

Havas bilan har birin,
Olib ko'rdim qo'limga,
Oltin kabi ko'rinar,
Ular mening ko'zimga

Mazasini totiyman
A'lo erur qanddan ham
Bunday shirin olmani,
Men ko'rganman kamdan-kam.

Bunday shirin olmalar,
O'z bog'imda yetildi,
Yashnab o'ssin deb ular,
Halol mehnat etildi.

Uzum

M.Qo'shoqov she'ri

2-bola Keling do'stlar ko'rgani,
Xovlimiz bog'ini,
Uzumlarning sharbatday
Pishib turgan chog'ini.

Shakarangur tovlanar,
Shakar kabi toti bor.
Bog'dagi uzumlarning
Ex-xa qancha oti bor!

Yeganmisiz pishganda
Noshvati rang xusayni,
Shivilg'oni yo chillaki,
Hay-hay xoldor buvaki!

Barcha oila a'zolari o'quvchilarni chapak chalib olqishlaydi. Ularga raxmat aytishadi. Boshlovchi oila bog'ida namunali mehnat qilgan a'zosiga (ona yoki opa) so'z beradi. Olma, shaftoli, uzum, nok, bodring, pomidor kabi meva – polizlarni yetishtirishda qilgan mehnatni bosqichma-bosqich gapirib beradi. Oila a'zolarining hosilni bunyo etishdagi xizmatlarini alohida ta'kidlaydi. Doimo oila a'zolari

ana shunday uyushib, hamkorlikda faol mehnat qilishi zarurligini aytib o‘tadi. Barcha oila a‘zolariga o‘z minnatdorchiligini bildiradi. Boshlovchi: avval bolalar keyin esa kattalar meva va polizlar haqida maqollar va topishmoqlar aytishni taklif etadi. Hamma o‘zlari bilganlarini navbat bilan aytadilar: osti teri, usti teri, ichida totli tariq (Anjir). Bir onadan yuz bola yuzovi ham bo‘z bola (Uzum). Kichkinagina dekcha, ichi to‘la mixcha (Anor). Bir qop un, ichida ustun (Jiyda). U yog‘i tog‘, bu yog‘i tog‘, o‘rtasida sariyog‘ (Yong‘oq). Onasi bitta, bolasi mingta (Tarvuz). Qat-qat to‘ni bor, qarich to‘nli (Karam). O‘zi shirin tukligina, mazasi ham totligina (Shaftoli). Yer tagida oltin qoziq u hammaga bo‘lar oziq (Sabzi). Yozda kiyinadi, qishda yechinadi (Daraxt). Arpa ekkan, arpa olar; Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar; Bug‘doy ekkan bug‘doy olar; Yer xazina, suv oltin; ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi; Mehnat, mehnatning tagi rohat. Oltin o‘tda bilinar, odam mehnatda va hokazo.

Nihoyat oila a‘zolari jamoa bo‘lib topishmoqlarni topadi va mehnat haqida maqollarni aytadilar. Boshlovchi hosil bayramini yakunlaydigan oila oqsoqoli yoki onaxon oila a‘zolarini hosil bayrami bilan muborakbod etadi. Hosilni yetishtirishda namunali mehnat qilgan oila a‘zolarining nomlarini tilga oladi va o‘z navbatida ularga oila a‘zolarining minnatdorchiligini izhor etadi. Hosil bayramida faol qatnashgan o‘quvchilarning nomlarini e‘lon qiladi va oila a‘zolari jamoasi nomidan tayyorlangan esdalik sovg‘alarni topshiradi. O‘z navbatida hosil bayramida faollik ko‘rsatish bilan bir qatorda, kelgusi yil hosili uchun bundan ham yaxshiroq mehnat qilish zarurligini ta’kidlab o‘tadi va hosil bayramini yakunlaydi.

Oilada hosil bayrami juda sodda shaklda o‘tkazilsada, bolalarni ekologik, mehnat va axloqiy tarbiyalashda muxim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Oila xo‘jaligida yetishtirilgan meva yoki poliz maxsulotlari birorta turini boshlash barcha oila a‘zolarining ishtiroki asosida tashkil etiladi.

Mana bu oddiy udumda oila a‘zolarining hammasi ishtirok etishi katta, kichik, oila a‘zolarining teng huquqli ekanligini, bir-birlariga bo‘lgan hurmatni, mehr–muhabbatni, o‘z manfaatini oiladagi jamoa manfaatiga uyg‘unlashtiruvchi ekologik axloqiy vosita hisoblandi. Mabodo ma’lum sababalarga ko‘ra qatnashish imkoniyati bo‘lmasa qatnasha olmagan a‘zoning ulushi ajratib saqlab qo‘yilgan.

Ota-onalar hosil bayramini oilada tashkil etishda bolalarda ekologik ta'lim-tarbiyani qolaversa mehnatsevarlikni hosil qilishga, mehnat qilish xohishini tarbiyalashga, mehnat ahliga hurmat va mehnat natijalarini ko'ra bilish hamda qadrlash kabi mehnatning axloqiy sifatlarini shakllantirishga alohida e'tiborni qaratishi maqsadga muvofiqdir.

Oilada bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berish muxim ahamiyatga ega. Chunki oilada hosil qilingan dastlabki ekologik bilimlar natijasida bolalar ijtimoiy hayotda tabiatning inson uchun ko'rsatadigan mehr-muruvvati his qiladi, anglaydi va uning qadriga yetishga harakat qiladi.

Oilada ekologik tarbiyaning maqsadi bakalavrlarga, ota-onalarga ayniqsa bolaga ekologik ta'lim-tarbiyasiz inson hayotini tashkil qilish mumkin emasligini tushuntirish, anglatishdir.

Oilada ekologik tarbiyaning vazifasi esa bolada tarkib topgan bilimlarga tayanib uni hayotda qo'llash bilan bog'liq ekologik ko'nikma va odatlarni tarbiyalash orqali komil insonni shakllantirishga poydevor qo'yishdan iborat.

Bola bilimi oilada ota-onalarning atrof-muhit to'g'risidagi axboroti og'zaki, ko'rsatmali, amaliy shakllarda va uqtirish, tushuntirish, hikoya qilish, suhbat, bahs, namuna, rag'batlantirish, jazolash, o'z-o'zini tarbiyalash, mashqlantirish metodlari asosida tashkil qilinadi. Bolaga tabiatni asrash, muhofaza qilish mohiyati, mazmuni oila sharoitida ota-onalar tomonidan quyidagi tuzilish va yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. **Birinchidan**, bolaga uyni, hovlini toza saqlash, tutish, oila tomorqasi yo bog'ida yoki dehqon fermer xo'jaligida ekinlarni ekish, bog'ga ishlov berish, zararkunada hasharotlarga qarshi kurashish, hosilni yig'ishtirish, uy parranda, hayvonlarni parvarishlash kabi faoliyatlarni kuzatish bilan uning ekologik ongi tarkib toptirib boriladi. **Ikkinchidan**, yuqoridagi faoliyatlarda ya'ni oila doirasida, fermer xo'jaligida bolaning ota-ona rahbarligida shaxsan ishlab chiqarishda ishlarni bajarish orqali amaliy ekologik ko'nikma, odatlar tarkib topadi. **Uchinchidan**, matbuot, radio eshittirishi, oynai jahon ko'rsatuvi, kompyuter, internet darsliklar, ertak, xikoya, rasmlar qo'llanmalar vositasida bola o'z ekologik ma'lumotini oshirib, to'la bo'lishini ta'minlashga erishadi. **To'rtinchidan**, bolada tarkib topgan ekologik ma'lumotni oila va ijtimoiy turmushda amalda qo'llash bilan bog'liq ekologik ko'nikma va odatlarning o'z vaqtida puhta, mustahkam tarkib topdirishga

erishadi. Misol uchun onaning qizini oila hududini doimo toza-pokiza qilib tutishga o'rgatishi, gullarni parvarishlashga o'rgatish, yoki otaning o'g'liga ekinlardagi zararkunanda hasharotlarga qarshi kurash kabi ishlarni mustaqil bajarishga odatlantirishi, bolani yoshlikdan shaxsiy gigiena, xonani havosini toza tutishni, yuz, qo'llarini, badanni doim toza saqlashni, ichimlik suv, tabbiy gaz, elektr energiyasini tejash va ulardan samarali foydalanishni o'rgatish orqali ularni hayotga ekologik tayyorlashga olib keladi. Bundan ham bola, ham oila, ham jamiyat birdek moddiy va ma'naviy manfaat ko'radi. Shuning uchun oilada ota-onalar bolada ekologik ko'nikma, odatlarning tarkib topdirishdagi mustaqil harakatlarini rag'batlantirib borish juda foydali.

Oilada bolani ekologik tarbiyalashda eng asosiy narsa ota-onalarning oila sharoitida bolaga ekologik mas'uliyat va burchni shakllantirishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunga erishish uchun ota-ona o'g'liga yo qiziga oila sharoitidan kelib chiqib polizni va mevali daraxtlarni parvarishlash hamda ularni qush, hayvonlardan muhofaza qilish to'g'risida aniq topshiriq berishi va uning ijrosini uzluksiz, doimo nazorat qilishi shart. Agar ota-onalar bunday nazoratni vaqtida tashkil qilsalar, bolada shu sohada mas'uliyat va burch tashkil topadi va mustahkamlanib, odatga aylanadi. Yoki aksincha. Albatta bolada bunday ekologik mas'uliyat va burch birdaniga shakllanmaydi. Bunga muvofiq bo'lishda bolaning fe'l-atvori, tarbiyalanganligi hamda imkoniyatini inobatga olish kerak. Bu borada ota-onalar o'ta ziyrak bo'lmog'i va tadbir bilan bunga erishmog'i eng to'g'ri yo'ldir.

Oilada bolani ekologik tarbiyalashda va hayotga tayyorlashda ota-onalar quyidagi uch yo'nalishda ekologik tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirishlari ekologik tarbiyaning samaradorligini ta'minlashga amaliy yordam beradi. **Birinchidan**, ota-onalar ekologik tarbiyaning mohiyati, mazmunini o'zlari ongli ravishda fikrga ega bo'lmog'i. **Ikkinchidan**, o'z ongidagi ekologik ma'lumotni ya'ni fikrini ekologik ko'nikma, malaka va odatlarda mustaqil bajara olishi. **Uchinchidan**, ota-onalar o'zlarida tarkib toptirgan ma'lumotga ya'ni fikrga tayanib, hosil qilgan ko'nikma, odatlarni shaxsiy va ijtimoiy turmushda qo'llay olishlari juda muhim. Ayniqsa ota-onaning ibrat-namunasi, talabchanligi va oila, ijtimoiy hayotdagi hamda kasb sohasidagi faolligi, harakatchanligi hal qiluvchi omil bo'la oladi. Shunday qilib, oilada bolani ekologik tarbiyalash, uni oila va ijtimoiy hayotga ekologik tayyorlashning, bolani shakllantirishning, oila a'zolari

hayotini barqarorlashtirishning, shuningdek mamlakat hududida ekologik shart-sharoitni yaratishning zaruriy tarkibi bo'lmog'i darkor.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Oilada bolani ekologik tarbiyalashning maqsad, vazifalari nimalardan iborat?
2. Bolani ekologik tarbiyalash qanday hujjatlarda o'z ifodasini topgan?
3. Bolani ekologik tarbiyalashda xalq tarbiyashunosligida qanday milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar mavjud?
4. Bolani ekologik tarbiyalashning qaysi shakllari, metodlari va vositalari mavjud?
5. Ota-onaning bolani ekologik tarbiyalashdagi burchi va vazifalari nimalardan iborat?

XULOSA

Shunday qilib, oilada bolani komil inson qilib shakllantirishda bo'lajak bakalavr mutaxassislar va ota-onalarning bola tarbiyasining qirralari bo'yicha nazariy ilmiy va uslubiy ma'lumotlari hamda shu bilimlarni oila sharoitida bola tarbiyasida qo'llash tarbiyachilik madaniyatining tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Demak, bo'lajak bakalavrni va ota-onalarni oila sharoitida bola tarbiyasining asosiy qirralari bilan amaliy ishlashga tayyorlash ijtimoiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishdir. Shuning uchun ham bo'lajak bakalavrlarni va ota-onalarni bola tarbiyasining qirralari haqidagi maxsus bilimlar bilan ta'minlash bo'yicha nazariy, ilmiy bilimlar bilan ta'minlash bag'oyat muhim.

Bakalavrlarning pedagogik ko'nikma, malakalarini tarkib toptirishda bakalavrlar tayyorlaydigan oliygohlarning o'quv rejalariga «Oila pedagogikasi» fanini hyech bo'lmaganda tanlov fan sifatida va oilada ota-onalarning uni mustaqil o'rganishini yo'lga qo'yish obyektiv zarurat va oila tarbiyasining muammolarini bartaraf qilishda olib keladi.

Bo'lajak pedagogik bakalavrlar «Oila pedagogikasi» fanidan to'la bilimga ega bo'lmay oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini talab darajasida amalga oshira olmaydi. Ular bu bilimlarsiz bola tarbiyasini maqsadga muvofiq olib borishi qiyin. Va o'z navbatida bola tarbiyasida muammolar ko'paya boradi. Ayniqsa ota-onalarning oila sharoitida bola tarbiyasining qirralari amalga oshirishda «Oilada bola tarbiyasining qirralari va uslublari» uslubiy qo'llanma bag'oyat muhim ularda tarbiyachilik ko'nikma, malaka va tajribalarini tarkib toptirishga imkoniyat yaratadi.

Mazkur tashkiliy pedagogik ishlarning ilmiy, nazariy va uslubiy tomondan to'g'ri yo'lga qo'yilishi bo'lajak bakalavrlar ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashga o'rgatishda hamda ota-onalarni bola tarbiyasining qirralari bilan amaliy ishlashga tayyorlashni yaxshilashga, takomillashtirishga xizmat qiladi va quyidagi zaruriy tashkiliy vazifalarni amalga oshiradi. Birinchidan, «Oila pedagogikasi» fanini ommaviy, ijtimoiy fan sifatida o'rganishini yo'lga qo'yadi.

Ikkinchidan, bo'lajak bakalavrlarni va ota-onalarni oila sharoitida bola tarbiyasining qirralari bilan ilmiy nazariy va uslubiy jihatdan bilishga o'rgatadi va maxsus pedagogik ko'nikmalarni tarkib toptiradi.

Uchinchidan, bakalavrlarni kelgusida ota-onalar bilan bola tarbiyasida hamkorlikda ishlashga tayyorlaydi.

To'rtinchidan, bo'lajak bakalavrlar va ota-onalarda bola tarbiyasining asosiy qirralari bilan amaliy ishlash ko'nikmalari, malakalari va tajribalarini tarkib toptiradi.

Beshinchidan, bo'lajak bakalavrlar va ota-onalarda oilaning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalari va tajribalarini tarkib toptiradi.

Oltinchidan bola tarbiyasi ota-onalarning shaxsiy ishi bo'lmay, balki davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy ishligiga ishontiradi.

Yettinchidan, ota-onalarda o'z bolalarini tarbiyalashga bo'lgan mas'uliyat, burch va javobgarlikni oshiradi.

Sakkizinchidan, bola tarbiyasida maktab, kollej va oila hamkorligini ta'minlashga zamin yaratadi.

To'qqizinchidan, bolani o'z vaqtida to'g'ri tarbiyalash birinchi galda ota-onalarning o'zlariga oilasiga va mamlakatga foyda keltirishini ota-onalarga anglatadi.

O'ninchidan, bola tarbiyasida ota-onalar xatolarini bartaraf bo'lishiga imkon beradi.

O'nbirinchidan, ota-onalarni bolaga o'z vaqtida va joyida ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

O'nikkinchidan, ota-onalar bola hayotini sutka davomida nazoratni o'rgatadi va hokazo.


Yuqoridagi tashkiliy pedagogik ishlarning barchasi bolani oila sharoitida komil bo'lib tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: (2012 yil 1-maygacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) - Toshkent: «Adolat», 2012 y. -192 b.
3. O'zbekiston Respublikasi «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. - Toshkent: 2008-yil, 7-yanvar, №O'RQ-139.
4. 1998 yil – oila yili. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
8. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – Toshkent: O'zbekiston, 1994.
9. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
11. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI arsga intilmoqda. – Toshkent; O'zbekiston, 1999.
13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr ostonasida. – Toshkent; O'zbekiston, 2011.
14. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
15. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
16. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-kitob. – Toshkent, 1953.
17. Abu Ali ibn Sino. Tadbir-al manozil. – Tehron, 1939.
18. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent,
19. Sa'diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
20. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. – Toshkent, 1977.
21. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, 1983.

22. Alisher Navoiy. Hayrat-ul abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1989.
23. Al-Buxoriy. Al-adab al-muftrat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1990.
24. Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – Toshkent, 1990.
25. Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. – Toshkent: Kamalak, 1992.
26. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Istiqlol, 1994.
27. Qur‘oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. -T.: Cho‘lpon, 1992, 544 b.
28. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
29. Axloq-odobga oid hadis namunalari. – Toshkent: Fan, 1990.
30. Ahmad Donish. Navodir-ul vaqoye’. – Toshkent, 1964.
31. G‘aniyev A. Ahmad Donishning pedagogik qarashlari. – Samarqand, 1990.
32. Suxomlinskiy V.A. Tarbiya to‘g‘risida. – Toshkent, 1977.
33. Suxomlinskiy V.A. Bolalarga jonim fido. – Toshkent, 1984.
34. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi: K.Hoshimov, S.Ochil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
35. Abdurauf Fitrat. Oila va oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
36. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
37. Muhammad payg‘ambar qissasi. Hadislar. –Toshkent, «Kamalak», 1991.
38. Quronov M. Milliy tarbiya. T.: «Ma’naviyat» 2007 yil, 226- bet.
39. Jamoa. Oila pedagogikasi. – Toshkent, Aloqachi, 2007..
40. Azarov Yu.P. Oila pedagogikasi. – Toshkent, O‘qituvchi, 1988.
41. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. –T.: 1999. 152-bet.
42. Musurmonova Oynisa. “Oila ma’naviyati – milliy g‘urur”. T.: “O‘qituvchi”, 1999 yil, 200 bet.
43. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008
44. Pedagogika. //M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010
45. Jumaniyozov R. “Xalq ijodi haq ijod”. T.: “O‘zbekiston, 1993 yil, 79 bet.

46. Javliyev T. "An'analar hayot sabog'i". T.: "O'zbekiston", 1992 yil, 90 bet.
47. Rizouddin ibn Faxruddin. Oila. – T.: Mehnat, 1991.
48. Rizouddin ibn Faxruddin. Tarbiyali xotun. - Toshkent: Mehnat, 1991.
49. Faxr-ul Banot Subg'atulloh qizi. Oila saboqlari. - Toshkent: Mehnat, 1991.
50. Aliy Nazimo. Qizlar tarbiyasi. - Toshkent: Kamalak, 1994.
51. Usanov Abdulahat. Oilaviy an'analar - axloq va mehnat tarbiya vositasi. - Samarqand: SamDU nashri, 1990.
52. Usanov Abdulahat. Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2005.
53. Usanov A., Usanov Sh.. Ko'pkari an'anasi - o'quvchi yoshlar tarbiyalashda milliy qadriyat// «Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning dolzarb muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Samarqand, 2004 yil. 55-58 b.
54. Usanov Sh.. Bolalarni oilada halollik va adolat ruhida tarbiyalash// Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari. III qism. - Samarqand, 2004 yil. 26-29-b.
50. Usanov Sh. Oilada bolani aqliy tarbiyalash. Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy muammolari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Samarqand, 2008. 27-28 iyun. - 181-183 b.
52. Usanov Sh., Oilada bolalarni mehnatga ko'niktirish an'anasi - milliy qadriyat. SamDU «Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi». - Samarqand, №4, 2009. 82-85 b.



Axloqiy tarbiyaning maqsadi:

- Mutaxassislar va ota-onalarga bola axloqiy tarbiyasi haqida ma'lumot berish;
- Mutaxassislar va ota-onalarga axloq tarbiyasi bola tarbiyasining tarkibiyligini anglatish;
- Bolani axloqiy tarbiyalash ota-onaning asosiy burchi;
- Bolada axloqiy tasavvur, tushuncha, bilim, ma'lumot, ong (fikr)ni tarkib toptirish ota-onaning asosiy burchi;
- Kichikka g'amxo'r bo'lish, keksalar va kattalarni hurmat qilishni anglatish;
- O'zini, o'zgalarni qadrlay olishni anglatish;
- Millatini, xalqini, mamlakatini, Vatani sevish va hiyonat qilmaslik, uni himoya qilishni anglatish;
- Oila, mehnat jamoasi, millat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yimaslikni tushunish;
- Mehnat qiladiganlarni qadrlashni bilish;
- Tartib buzarlarga nafrat bilan qarashni bilish;
- Halol, adolatli, imonli odamlarni qo'llab-quvvatlashni anglatish;
- Yot oqimlarga kirmaslikni anglatish;
- Barcha narsalarga, xususan, o'z ishiga befarq, loqayd bo'lmasslikni anglatish;
- Milliy an'ana, urf-odat va umumbashariy qadriyatlarini anglatish;
- Axloqli, ma'naviyatli va madaniyatli bo'lishni anglatish;
- Gijohvand moddalarni iste'mol qilmaslik;
- Milliy ong, milliy o'zlikni anglatish, milliy g'urur, millatdan faxrlanish;
- Tashqi ko'rinishda Ovro'pacha xulq-atvorga taqlid qilmaslik va hokazo.

OILADA AXLOQIY TARBIYA

Axloqiy tarbiyaning vazifalari:

- Bolada axloqiy ma'lumotni hayotda qo'llash bilan bog'liq amaliy ko'nikma, malaka va odatni tarbiyalash ko'nikmasi;
- Kichikka g'amxo'r bo'lish, keksa, katta, ota-onani, o'zgalarni hurmatlash, o'zini, o'zgalarni hurmatlash, qadrlay olish ko'nikmasi;
- Tabiatga, jamiyatga, oilaga axloqiy munosabatda bo'lish ko'nikmasi;
- O'yin, o'qish, mehnat faoliyatlariga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasi;
- Vatani, millatini, mamlakatini sevish, ularga sodiq, munosib bo'lish va himoya qila olish ko'nikmasi;
- Jamoat joylarida o'zini tuta olish ko'nikmasi;
- Oilasi, mehnat jamoasi, millati va mamlakati manfaatlarini o'z manfaatidan ustun qo'yimaslik ko'nikmasi;
- Egallab turgan lavozimini suyiste'mol qilmaslik ko'nikmasi;
- Tengdoshlariga past nazar bilan qaramaslik ko'nikmasi va hokazo;
- Halol, adolatli, imonlilarni qo'llab-quvvatlash va haromxo'rlikka, adolatsizlikka nafrat bilan qarash ko'nikmasi;
- Mehnat ahlini hurmatlash ko'nikmasi;
- O'z ishiga befarq, loqayd bo'lmasslik ko'nikmasi;
- Bolani axloqiy jihatdan oila, ijtimoiy hayotga, kasbga tayyorlash;
- Bolaning komil bo'lishiga poydevor qo'yish.

Oilada axloqiy tarbiyani shakllantirish metodlari:


- Ijtimoiy ongni tarkib toptirish.
- Ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini hosil qilish (mashqlantirish).
- Ibrat-namuna.
- Rag'batlantirish va jazolash.
- O'z-o'zini tarbiyalash.
- Oavta tarbiyalash.


Oilada axloqiy tarbiyani amalga oshirish shakllari:


- Og'zaki.
- Yozma.
- Ko'rsatmali.
- Amaliy


Oilada aqliy tarbiyaning vositalari:

Axborot resurs markazi, internet, gazeta, jurnal, radio, oina, jahon, kino, teatr, adabiyot, san'at, ijtimoiy hayot, uchrashuvlar, tarixiy yodgorliklar, maqbaralar, uy muzeylar, albomlar, video lavhalar, DVD, sayohat va h.k.









Huquqiy tarbiyaning manbalari:

- Me'yoriy hujjatlardagi huquqiy talablar;
- Sharq-g'arb mutafakkirlar, taniqli pedagoglarning fikrlari.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi «Bola huquqlarining kafolatlari» Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi mehat kodeksi.

Oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish vositalari:

Axborot resurs markazi, internet, gazeta, jurnal, radio, o'lnai jahon, kino, teatr, adabiyot, san'at, hayotiy voqaealarni kuzatish, tahlil qilish, video lavhalar, magnitafon, sayohat va h.k.

Oilada huquqiy tarbiyaning maqsadi:

- Mutaxassislar va ota-onalarga huquq tarbiyasining bola hayotida tutgan o'rni va roli anglatish;
- Mutaxassislar va ota-onalarga huquq tarbiyasi bola tarbiyasining tarkibiyatligini tushuntirish;
- Bolani huquqiy tarbiyalash ota-onaning asosiy burchi;
- Bolada huquqiy tasavvur, tushuncha, bilim, ma'lumot, ong (fikir)ni tarkib toptirish ota-onaning asosiy burchi;
- Oilada, maktabda va jamoat joylarda bolaning huquqbuzarliklarni sodir qilmasligining oldini olish ota-onalarning asosiy burchi;
- Bolani huquqiy jihatdan oilaga, ijtimoiy hayotga va kasbga tayyorlash ota-onaning asosiy burchi.

Huquqiy tarbiyaning vazifasi:

- Bolaning huquq haqidagi ma'lumotini, ong (fikir)ni hayotda qo'llash bilan bog'liq ko'nikma, malaka va odatlarni tarkib toptirish;
- Huquqiy tarbiyani bola tarbiyasining tarkibiga kiritish, singdirish;
- Bola huquqiy tarbiyasi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- Bolaning huquqiy tarbiyalanganlik darajasini bilish;
- Bolaga huquqiy ta'sir ko'rsatish qoidalarini va usullarini bilish va qo'llash;
- Bola huquqiy tarbiyasiga befarq bo'lmazlik;
- Bolada huquqiy mayl va xohishni tarbiyalash;
- Bolada huquqbuzarlikning bo'lmazligini oldini olish;
- Bolani fikr, so'z, e'tiqodga o'rgatish;
- Bolada bilim, axborot olishga, mehnat va dam olishga o'rgatish;
- Bolani sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyalashiga o'rgatish;
- Bolani huquqiy tomondan oila, ijtimoiy hayotga va kasbga tayyorlash;
- Bolaning huquqiy shakllanishiga poydevor yaratish.

Oilada huquqiy tarbiyaning shakllari:

- Og'zaki.
- Yozma.
- Ko'rsatmali.
- Amaliy.

Huquqiy tarbiya metodlari:

- Ijtimoiy ongni tarkib toptirish.
- Ijtimoiy tajribani tarkib toptirish (mashqlantirish).
- Ibrat-namuna.
- Rag'batlantirish va jazolash.
- O'z-o'zini tarbiyalash.
- Qayta tarbiyalash.

OILADA HUQUQIY TARBIYA

OILADA EKOLOGIK TARBIYA

Oilada Ekologik tarbiya metodlari:

- ekologik ongni tarkib toptirish metodlari;
- ekologik ko'nikma, malaka va odatni o'rgatish metodlari;
- Ibrat-namuna metodlari;
- Rag'batlantirish va jazolash metodi;
- O'z-o'zini tarbiyalash metodi;
- Qayta tarbiyalash metodi.

Ekologik tarbiyaning maqsadi:

- Bo'lajak mutaxassislariga va ota-onalarga oilada ekologik tarbiya haqida ma'lumot berish;
- Mutaxassislar va ota-onalarga ekologik tarbiya bola tarbiyasining tarkibiyligini anglatish;
- Mutaxassislarga va ota-onalarga ekologik tarbiyaning bola hayotida tutgan o'rni tushuntirish, anglatish;
- Ota-onalarga atrof-muhitning tozaligi, musaffoligi haqida ma'lumot berish;
- Bolani ekologik tarbiyalash ota-onaning asosiy burchi;
- Bolada ekologik tasavvur, tushuncha, bilim, ma'lumot, ong (fikr)ni tarkib toptirish ota-onaning asosiy burchi.

Ekologik tarbiya shakllari:

- og'zaki
- yozma
- ko'rsatmalar
- amaliy

Oilada ekologik tarbiya vositalari:

- Gazeta, jurnal,
- adabiyot, san'at, tabiat
- manbalari, radio, oynayi
- jahon, kino, teatr,
- internet, axborot resurs
- markazlari, sayohat,
- video materiallar,
- rasmlar va hokazo

Ekologik tarbiyaning vazifalari:

- Ota-onaning ekologik malakasi va tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish;
- Ekologik tarbiya bola tarbiyasining tarkibiyligiga bolani ishonitirish;
- Ekologik tarbiya uchun qulay shart-sharoit yaratish, g'amxo'rlik qilish;
- Tarbiyachilik malaka va mahoratini tarkib toptirish va oila sharoitida qo'llash;
- Bolaning ekologik tasavvur, tushuncha, ta'lim-tarbiya, ma'lumot, ong (fikr)ni hayotda qo'llab ko'nikma va odatlarni o'rgatish;
- Bolaga ekologik ta'sir ko'rsatish qoidalarini va usullarini bilish;
- Bolada ekologik mayl va xohishini tarbiyalash;
- Bolada ekologik ta'lim-tarbiyaga tayanib o'yin, o'qish, mehnat va hayotini tashkil etish;
- Bolada atrof-muhitni muhofaza qilish ko'nikmasini tarkib toptirish;
- Bolada atrof-muhitga ongli ekologik munosabatlarni tarbiyalash;
- Bolani ekologik jihatdan oila, ijtimoiy hayotga va kasbga tayyorlash;
- Bolani ekologik shakllantirishga poydevor qo'yish va h.k.

MUNDARIJA

KIRISH	3
Oilada bolani aqliy tarbiyalash.....	7
Oilada bolani maktabga tayyorlash.....	11
Oilada axloqiy tarbiyalash.....	14
Bolaning mehnat tarbiyasi.....	89
Bolani estetik tarbiyalash.....	25
Bolaning jismoniy tarbiyasi.....	32
Bolani iqtisodiy tarbiyalash.....	36
Bolani huquqiy tarbiyalash.....	43
Bolani ekologik tarbiyalash.....	49
XULOSA	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	67

Sh.Usanov Sh.Axmedova

OILADA BOLA TARBIYASINING TARKIBIY QISMLARI

Uslubiy qo‘llanma

Muharrir: N. Saydaaliyeva
Musahhih: X. Rahimova
Texnik muharrir: B. Egamberdiyev

ISBN 978-9943-45-33-06

2008 yil 19-iyun 68-buyruq.

2016yil 15-noyabrda noshirlik bo‘limiga qabul qilindi.

2017 yil 5-aprelda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x84/ 1,16. «Times New Roman» garniturasini. Ofset qog‘ozi.

«Rizograf» uskunasi bosildi. Shartli bosma tabog‘i 5.0.

Nashriyot hisob tabog‘i 4.0. Adadi 50 nusxa. 102 -buyurtma.

SamDU bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Uniyersitet xiyoboni, 15.

